

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI



**«Dehqonchilik va melioratsiya asoslari»
kafedrasi 5620800-O'rmonchilik ta'lim
yo'nalishi bakalavriat bitiruvchisi**

JO'RAYEV MANSUR MAHMADQULOVICH NING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: O'zbekistonning cho'l sharoitlarida butazorlar barpo etish
agrotexnikasi**



Ilmiy rahbar, dosent _____Xudoyqulov O.X.

**Ishko'rib chiqildi va himoyaga qo'yildi.
«Dehqonchilik va melioratsiya asoslari»
kafedrasi mudiri,
professor_____K.M.Mo'minov
«___»_____2013-yil**

**Agronomiya fakulteti dekani
dotsent_____M. A. Hayitov
«___»_____2013-yil**

SAMARQAND-2013

Mundarija

	Kirish	
1	Adabiyotlar sharhi	
2	O'zbekistonning cho'l mintaqasining tuproq-iqlim sharoitlari	
3	Asosiy qism	
3.1	Buta turkumiga kiruvchi ayrim turlarning dendrologik tavsifi	
4	Cho'l butalarining parvarishlash agrotexnikasi	
5	Cho'l hududida himoyalovchi butazor va daraxtzorlar barpo etish agrotexnikasi	
6	Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yullari va choralari	
7	Bosh maqsadimiz keng kulamli islohatlar va modernizasiya yo'lini qattiyat bilan davom ettirish	
8	O'rmon xo'jaligi ishlab chiqarishda mehnatni muxofaza qilish	
	Xulosa va tavsiyalar	
	Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati	
	Ilova (internet ma'lumotlari)	

Kirish

Respublikamiz Oliy kengashining 1999 yil navbatdagi sessiyasida qabul qilingan “O’rmon qonuni”da mamlakatimizda o’rmonlarni saqlash, himoya qilish, ularning maydonlarini ko’paytirish, hosildorlikni oshirish va himoya xususiyatlarini kuchaytirishni e’tiborga olgan holda, bu muammolarni yechishida sun’iy o’rmonzorlar, tez o’suvchi daraxtlar plantasiyalari, ihota daraxtzorlari va butazorlari barpo etish ishlarini rivojlantirishni yanada yuqori pog’onaga ko’tarish talab etiladi.

Shuning uchun o’rmonlarni qayta tiklash va sun’iy o’rmonzorlar barpo etish respublikamizda xalq xo’jaligining asosiy vazifasi bo’lganligi sababli soha yo’nalishi ish hajmi yildan yilga ortib bormoqda.

Ayniqsa, tuproq eroziyasi, qum kuchkilari va sellarning oldini olishda, chorvani yem-xashak bilan ta’minlashda, yangi o’rmonzorlar barpo etib, himoya qilish ishlari yo’nalishida, Orol muammosini yechishda sezilarli natijalarga erishilmoqda.

Hozir o’rmonlarga iqtisodiy rivojlanishning tabiiy omili sifatida katta e’tibor berilmoqda. Binobarin, o’rmon xo’jaligi masalalariga o’rmonzorlarni parvarish qilish, tartibga solish xususiyatlarini oshirish, ular zahiralaridan foydalanish va atrof-muhitni saqlash, iqlimini qayta tiklash (rekrasion) jihatlaridan ommaviy dam olishni tashkil etishni kengaytirish kabi tashkiliy – iqtisodiy vazifalar majmuini hal etishda muhimligini inobatga olgan holda qarash kerak.

Agar yer iqtisodiy daraja sifatida mehnat va uning vositasi predmeti bo’lsa, o’rmon ayni vaqtda mehnat predmeti, vositasi va mahsuli sifatida o’z imkoniyatini namoyon etadi.

Xo’sh o’rmon qachon mehnat predmeti obyektiga bo’la oladi? Qachonki o’rmon mahsulotidan jamiyat talabini qondirish maqsadida uni muhofaza qilish tiklash va parvarish qilishda foydalanilsa, o’rmon mehnat predmeti yoki obyektiga vazifasini bajaradi.

Agar o'rmondan biologik jarayonlarda (fotosintez), shuningdek qishloq xo'jaligi dalalarini, suv havzalarini, cho'llarni muhofaza qilishda foydalanilsa, u mehnat vositasi bo'ladi.

O'rmonni tiklash, asrash va uning sifatini yaxshilashda kerakli ijtimoiy xarajatlardan foydalanilgandagina u mehnat mahsuliga aylanadi. Shu nuqtai nazardan aytish joizki, agar o'rmon xo'jaligi va uni tiklash chora-tadbirlari ilmiy asoslanib, keng ma'noda va tizimli amalga oshirilsa, mehnat mahsuli, uning turlari ham sifat jihatdan ko'proq sezilarliroq bo'ladi, ya'ni o'rmon samaradorligi va undan foydalanishdan olinadigan iqtisodiy foyda oshadi.

O'rmon samaradorligiga ikkita: ekstensiv va intensiv yo'l bilan erishish mumkin.

Ayrimlar o'rmon o'z zaxiralarini to'ldirib boradi, u o'z-o'zidan tiklanadi, boyligi bepoyon deb o'ylashadi. Bu noto'g'ri fikrdir. O'rmonlari unchalik ko'p bo'lmagan nafaqat Markaziy Osiyo sharoitida, balki katta o'rmon zaxiralariga ega bo'lgan davlatlarda ham tarmoq rivojining ekstensiv yo'lidan intensiv yo'lga o'tish masalasiga alohida e'tibor beriladi.

O'rmon xo'jaligi sharoitida ekstensiv rivojlanish yo'li bilan biz bundan oldin foydalanilmagan o'rmon zaxiralarini o'zlashtirish hamda mavjud ishlab chiqarish vositalari va sohada amaldagi mehnatni tashkil etish sharoitida tabiiy yo'l bilan tiklanishini tushunamiz.

Intensiv (jadallashtirish) yo'l faol xo'jalik ta'siri samarasi o'laroq fan va texnika yutuqlarini tatbiq qilish, mehnatni tashkil etilishini takomillashtirish uchun mablag' kiritish orqali har bir maydon birligidan samaraliroq foydalanishni anglatadi.

Boshqacha aytganda, o'rmon xo'jaligida ishlab chiqarishni jadallashtirish deb kam xarajat qilib har bir gektar o'rmondan yuqori natijalarga erishish vositasini tushunish kerak. Lekin, ayni vaqtda o'rmonning muhofaza qilish vazifalarini kengaytirishga har tomonlama va shartli ravishda e'tibor berilishini ham nazarda tutish lozim.

Shu tariqa, o'rmon xo'jaligida ishlab chiqarishni jadallashtirish borasida quyidagilarga alohida e'tibor qaratish zarur:

- o'rmon zaxiralari rang-barangligiga jamiyat ehtiyojining ortib borishi;
- yerdan unumli foydalanish darajasini oshirish;
- ijtimoiy ishlab chiqarishda o'rmonning muhofaza rolini kuchaytirish;
- eng yangi texnikalarni yaratish;
- fan va texnika yutuqlari, texnologiyalarini amalda joriy etish;
- mehnat va ishlab chiqarishning tashkil etilishini takomillashtirish;
- atrof-muhitning ekologik xavfsizligi darajasini asrash va yuksaltirish

Davlat o'rmon fondi 8,8 mln.ga yoki umumiy maydonining 19,8 foiziga teng bo'lgan bizning respublikamizda o'rmonlar bilan qoplangan maydon qariyb 2,4 mln.gektarni tashkil etadi (5,3%) yoki har bir odamga o'rta hisobda 0,1 ga o'rmonzor maydoni to'g'ri keladi. Bu MDH respublikalari orasidagi eng past ko'rsatkich bo'lib, xorijiy mamlakatlardagi holat bilan taqqoslanganda bir necha baravar oz demakdir. Aksar olimlarning fikriga ko'ra «O'rmonzorlik» ko'rsatkichi o'rmon xo'jaligi sohasidagi faoliyatning asosiy omili-indikatorini hisoblanadi. O'rmon sanoati rivojlangan mamlakatlar, jumladan o'rmonzorlarligi 68 foizdan (Yaponiya), 33 foizgacha yetadigan (AQSh va Kanada) mamlakatlar bilan taqqoslanganda, bizning respublikamizdagi o'rmonlarning nafaqat daraxtlar bilan qoplanishi (5,3%), balki daraxt va buta turlari tarkibiga ko'ra ham ancha farq qiladi.

Masalan, o'rmonni ishlab chiqarishda va uning mahsulotini iste'mol qilishda dunyoda yetakchilik qilib kelayotgan AQSh da 73% o'rmon maydoni xususiy mulk hisoblanadi, o'rmonzorlar 308 mln.gektarni (ignabargli daraxtlar 83,9 mln.ga yoki 27,2%) va yillik o'sish 525 mln.m³ ni tashkil etadi.

Kanadada esa o'rmonlarning 8 foizi xususiy mulkdorlar ixtiyorida, o'rmonzorlarni tashkil qiladigan turlar tizimida ignabarglilar-79,3%, balzamli paxta-19,6 va qarag'ay – 14,6% ni tashkil etadi. Yillik o'sish esa 333,3 mln.m³, shu jumladan ignabarglilar – 353,8 mln.m³ yoki umumiy yillik o'sishning 76,1 foiziga teng.

Bu mamlakatlarda o'rmonchilik soxasidagi mulkdorchilik nisbati tafovutidan qat'iy nazar undan foydalanish va o'rmon xo'jaligini jadallashtirish muntazam amalga oshiriladi:

- yong'inga qarshi nisbatan samaraliroq kurashish va o'rmon nobud bo'lishiga 20 foizigacha ulushi bor har-xil zararkunandalar, kasalliklardan uni muhofaza qilishni tashkillashtirish;
- kasallangan, qurigan daraxtlarni kesish va qo'shimcha yog'och xomashyosi olish, ularning o'sishini tezlashtirish uchun parvarish kesuvini kengaytirish;
- o'rmonlarni qayta tiklash hamda asosan kesuvi qisqa muddatli (o'rta hisobda qariyb 30 yil) ignabargli (turli xil qarag'aylar) tez o'sadigan daraxt turlari maydonlarini yaratish bo'yicha dasturlarni kengaytirish va hokazolar;

Shu tariqa, o'rmonzorlarda, ularning mulkchilik shaklidan qat'iy nazar iqtisodiy foyda hamda o'rmon xo'jaligining barqaror rivojini ta'minlovchi tadbirlar majmui amalga oshiriladi.

O'zbekiston o'rmonlarining o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ular asosan tabiatni muhofaza qiluvchi vazifani bajarmoqda. 2,2 mln.gektarga teng bo'lgan o'rmonzorlarning quyidagi tizimga ega buta turlari: saksovul, cherkez, qandim – 81,6% ni tashkil etadi.

O'rmon xo'jaligi Bosh boshqarmasi tizimida yaqin va uzoq kelajakda amalga oshiriladigan o'rmon meliorasiyasi va o'rmon xo'jaligi ishlari bo'yicha chora-tadbirlar prognozlari muntazam olib borilmoqda. Masalan, Bosh boshqarma tomonidan 2010, 2030, 2050 yillargacha mo'ljallangan rejaga muvofiq mamlakatimiz o'rmon fondi maydonlarida o'rmonlarni tiklash, daraxt ekish ishlari har yili 43,17 ming gektar miqyosida amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

1. Adabiyotlar sharxi

Buta – tagidan bir- biriga teng tana (poya) larning o'sib chiqishi hamda past bo'lishi bilan boshqa daraxtlardan farq qiladigan o'simliklarning hayotiy shakli .

O'zbekistonning cho'l hududlarida juda ko'p turdagi va ko'rinishdagi butalarni o'stirish imkoniyati bor. Toshkentdagi Botanika bog'ida 2 mingdan ko'p har xil turdagi butalar o'stirilmoqda. O'z-o'zidan ma'lumki, bularning hammasi amaliy ahamiyatga molik emas, lekin ularning o'nlab, hatto yuzlab turi va ko'rinishlari respublika xalq xo'jaligida ish berishi mumkin. Ulardan qum kuchkilarini oldini olishda, ko'kalamzorlashtirish, ihota, irrigasiya tarmoqlari qirg'oqlarida o'stirish, imoratbob yog'ochlar yetishtirish va boshqa sohalarda foydalaniladi (A.Xonazarov. 2002).

Cho'l zonasidagi qumliklarda o'rmonlar urug' sepish yoki ko'chat o'tqazish bilan yaratiladi. Urug' ekish mayda zarrali qumliklarning katta maydonlarini o'rmonlashtirishda qo'llaniladi. Bu uslubni yalong'och qumliklarga ekishda ham qo'llash mumkin, lekin urug' sepish faqat mexanik himoya vositalari o'rnatilgandan so'ng qo'llaniladi. Bu keskin sharoitlarda madaniy o'rmonlar cherkez, qandim, jiyda, qora saksovul kabi urug' ko'chatlardan ekiladi. Qumliklarda o'rmon yaratish uslublari ishning maqsadi, xarakteri va qumning holatiga bog'liq. Madaniy o'rmonlar yaylovlarni himoyalovchi, meliorativ ozuqali yaylovlarni himoyalovchi, meliorativ ozuqali yaylovlar, voha, poselka, sanoat obyektlari atrofini, kanal, yo'llar chetini himoyalovchi daraxtzorlar ko'rinishida bo'lishi mumkin (M.Ya.Parenov va bosh.1983)

Cho'l o'rmon o'simliklari urug'larini maydonga noyabr boshidan fevral oxirigacha ekish mumkin. Qumda 20 sm. chuqurlikda nam bo'lgandan so'ng urug' sepish mumkin. Ertaroq sepilgan urug'lar yaxshi natija beradi. O'zbekistonning shimoliy tumanlarida ekishni fevral boshida tugatish zarur (S.M.Ablayev, Ya.X.Yuldashov.2008).

O'zbekiston Respublikasi o'rmon xo'jaliklari tarkibida har yili 40 mln.donaga yaqin ko'chatlar yetishtiriladi. Shundan 17 milioni urug' ko'chatlari va 23 millionni ko'chatlarni tashkil etadi. Ko'chatzorda o'rmon xo'jaligiga zarur bo'lgan barcha

xildagi ham o'rmon – mevali, ham o'rmon daraxt va bo'talarga oid turlari yetishtiriladi. Mamlakat oldida kelajakda yanada katta hajimda o'rmonlar barpo qilish vazifasi qo'yilgan. Bu esa o'z navbatida mustaqil O'zbekiston Respublikasini kelajakda yog'ochga bo'lganehtiyojini ta'minlaydi. Bunday ulkan ishlarni bajarish Respublikada o'rmon ko'chatzorlarini tashkillashtirishdan boshlanadi. buning uchun har tamonlama rivojlantirilgan ekish uchun asosiy manba bo'lgan yirik ko'chatzorlar barpo etish zarur (Sug'oriladigan o'rmon ko'chatzorlarida oq saksasovul, tqora cherkez, qizil qandim nihollarini o'stirish texnologiyasi bo'yicha tavsiyalar. Toshkent, 1991.19 b).

Cho'l butalari O'rta Osiyoning cho'llarida ko'chma qumlarni juda yaxshi mustahkamlovchi bo'lib, ular kuchma qumlarda yaxshi o'sib, shu maydonlarda yangi landshaft hosil qiladi va yashil libos berib manzarasini boyitadi. ular chullarning chiroyiga chiroy qo'shib qolmasdan, novdalari va mevalari qorako'l qo'ylari va boshqa hayvonlari uchun ozuqa hamdir (A.A.Xonazarov va boshqalar.2008).

Mamlakatimizning qumli mintaqalarida sun'iy o'rmonzorlar (80-90%) urug'larini sepish, butazorlar ularning ko'chatlarini ekish yo'li bilan barpo etilmoqda. Ushbu usulda ekish ishlari amalga oshirilganda ko'chatlar birinchi yillari urug'idan o'sib chiqqan nihollarga qaraganda bir muncha teziroq o'sadi. Ular begona va yovvoyi o'tlar raqobatidan kamiroq ta'sir ko'radi va ko'p urug' talab qilinmaydi. Bundan tashqari ekilgan ko'chatlar qushlar va g'ajsuvchi sichqon va kalamushlar tamonidan kam zararlanadi.

Ammo urug'idan ekib tashkil qilingan o'rmonzorlar ko'proq yashaydi. Va biologik tamondan ancha chidamliroq bo'ladi. Bunda o'rmonzorlar tashkil qilish qilish uchun alohida nihol xonalar barpo etish kerak emas va urug'ni sepish ko'chat ekishga qaraganda ancha yengil ish hisoblanadi. Lekin urug'dan sepib butazor barpo etish ko'p jihatdan ob-havo sharoitiga bog'liq (A.A.Xonazarov. 2002).

Himoya daraxtzorlarining joylashish sxemalari madaniy o'rmonlar va o'rmon meliorasiyasi obyektlarini yaratish agrotexnikasini qo'llashga qarab aniqlanadi.

Barcha holatda ekinlar kuchli shamolga perpendikulyar joylashtiriladi. Panjarasimon tartibdagi konstruksiyani yaratishda maksimal meliorativ samaraga erishish mumkin (S.M.Ablayev, Ya.X.Yuldashov.2008).

Quyonsuyak (*Ammodendron*)ning vakillari kichik daraxt yoki buta o'simliklaridir. Bular kumush rang, ipaksimon tukli o'simlik. Barglari juft patsimon bo'lib, 1-2 juft bargchadan tuziladi uchi tikan bilan tugaydi. Gul yon barglari mayda bo'lib, ko'zga yaxshi ko'rinmaydi. Gullari binafsha rangda, mayda yig'ilib shingilcha hosil qiladi. Kosachalarining barglari o'zaro teng, ikkita yuqorigisi o'stma-ust joylashadi. Gultojining yelkani yumoloq, qanotchasi qiyshiq, cho'zinchoq, qayiqchasi tumtoq, gulyonbarglari va changchilari erkin pallalarga ajralmaydi, har ikkala choki qanotchali.

Quyonsuyak (*Fm.codlyi*) bo'yi 8 m ga, deametri 20-25 sm.ga yetadigan kichik daraxtzor. Navdalari ingichka, serbarg bandinig izlari burtib turadi. Barglari juft patsimon, ikkita bargchadan iborat, yashil-kulrang qalin tukli, cho'ziq tuxumsimon bo'lib bo'yi 2 sm, eni 0.3sm, uchi o'tkir, tub qismi biroz tor, bandsiz. Gullari binafsha rangda, hidli, novdaning uchida yig'ilib kup gulli shingilcha xosil qiladi. Mevasi dukkak, buyi 20-30 mm, eni 10mm, yonidan ezik, ochilmaydi, har ikkala choki qanotchali, chuziq ovol shaklda, sariq.

Yog'ochi jigarrang o'zakli, pishiq, og'ir bo'lib, undan mayda asbob-uskunalar yasaladi. Ildizi juda chuqur kiradi. Ayrim tuplariniki yerga 18metrgacha kirgani aniqlangan. Quyonsuyak aprel oyida gullaydi, mevasi iyun oyida yetiladi. Urug'idan kupayadi. O'rta osiyodagi Qoraqum va Qizilqum chullarida tarqalgan botanika bog'ida o'stiriladi.Bu tur qumlar harakatini to'xtatish maqsadida ko'p ekiladi.

Tukli quyon (*Am.Karelinii*) bo'yi 2-3 m ga yaqin buta. Navdalari sariq-yashil tuk bilan qalin qoplangan, shonlari qo'ng'ir sariq, kul rangda, tikonsimon barg qoldiqlari bor. Barglari ikkita bargchadan iborat, ular tuximsimon, yashil-kulrang, tukli bo'lib, bo'yi 15-30 mm, eni 4mm, uchi o'tkir. Gullari to'q binafsha rangda bo'lib, yosh navdalari uchida shingilcha hosil qiladi. Mevasi dukkak, tuksiz, yonidan ezik, bo'yi 18-20mm gacha sariq. O'rta Osiyoda qumloqlarda

tarqalgan. Botanika bog'ida o'stiriladi. Qumlar harakatini to'xtatish maqsadida ko'p ekiladi.

Eyxvald quyonsuyagi (*Am eichwaldi*) bo'yi 2 m gacha yetadigan buta. Shoxlari serbarg, novdalari yashil kulrang, tuk bilan qalin qoplangan, barg bandining qoldiqlari bor, ularning uzunligi 3sm gacha, tikonsimon bo'lib, tubida ninasimon bargchalari bor. Barglari to'q patsimon, 2-3ta barkchadan iborat, uchi tikonli, bandsi, yashil-kulrang tuk bilan qalin qoplangan. Gullari to'q binafsha rangda, yig'ilib shingilcha hosil qiladi. Mevasi dukkak, bo'yi 20mm, eni3-4mm, yonidan ezik, sariq ochilmaydi. Har ikkala choki bo'ylab qanotchali, urug'i buyraksimon. O'rta Osiyo, Turkiston qumliklaridatarqalgan. Botanika bog'ida o'stiriladi.Qumlar harakatini to'xtatish, temir yo'llarni qum bosishdan himoya qilish maqsadida ekiladi. (A.U. Usmonov 1974).

Saksovul avlodi (*Haloxylon*) daraxt va buta o'simliklardan iborat. Shaklini o'zgartirgan barglari tangasimon. Assimilyasiya vazivaschini bir yillik, ingichka ipsimon navdalari bajaradi. Bu yosh va ingichka navdalar cho'l zo'nasida muhim yem-hashak hisoblanadi. Saksovulning 3 turi uchraydi. Oq saksovul (*H.persikum*) bo'yi 5m, qumliklarda yashaydi. Qora saksovul (*H.aphyllum*) qumli va sho'rxoq hamda yer osti suvi yaqin bo'lgan yerlarda o'sadi, bo'yi 7m gacha bo'ladi. Zaysan saksovil (*H.ammmodendvon*) ning tanasi egri-bugri bo'lib, sershox. Oq va qora saksovillari ko'chma qumlarni mustahkamlash uchun ekiladi. (I. Haydarov va boshqalar. 1990-yil).

Juzg'un avlodi (*Calligonum*) cho'llardja o'suvchi buta yoki daraxt o'simliklardir.. Barglarining shakli o'zgarib ipsimon bo'ladi. Juzg'unning 74 ta turi, jumladan Respublikamizdayam shuncha vakili uchraydi.

Qizil qandum (*C.canselatum*) ko'chma qumlarni mustaxkamlash va to'xtatish uchun ekilmoqda(I. Hamdamov va boshqalar 1990-yil).

Inson ming yillar davomida o'rmonlarga, qishloq xo'jalik maydonlarini ko'paytirish uchun yer zaxirasi, qurilish materiallri, asal va boshqa har xil mahsulotlar olish manbai deb qaragan (A.Xonazarov, 2000).

A.Xonazarovning (2008) ma'lumotlariga ko'ra qandim butazorlari O'rta Osiyoning cho'llarida ko'chma qumlarni juda yaxshi mustahkamlovchi tur bo'lib, u ko'chma qumlarda yaxshi o'sib, shu maydonlarda yangi landiyaft hosil qilad va yashil libo berib manzarasini boyitadi.

Rixter cherkezi o'rmon meliorativ ishlarida (ko'chma qumlarni mustahkamlashda) keng foydalaniladi. Cho'l yaylovzorlarning ozuqa zaxirasini boyitishda foydalanish mumkin. Chunki ularning novdalarini qo'ylar va tuyalar, ayniqsa kuz-qish fasllarida xush ko'rishadi (A.Xonazarov va boshqalar, 2008 yil).

Saksovul turkumi O'rta Osiyo cho'llarida eng o'ziga xos va ma'lum bo'lgan o'simlikdir. Turkumda 5 tur bo'lib, MDH da 3 turi uchraydi A.Xonazarov (2008) ta'kidlashisa saksavullarning hamma turlari cho'llarning noqulay qiyin sharoitlariga moslashib qolishgan, asosan qumli cho'llarda tarqalgan.

Yog'och mahsuloti kimyo sanoatida ayniqsa qimmatbaho xom-ashyolardan biri hisoblanadi. Uni kimyoviy qayta ishlash natijasida qimmatbaho buyumlar, skipidar, sirka kislota, metil va etil spirti, oshlovchi moddalar, kamfara, aseton va boshqa mahsulotlar olinadi, shuningdek, sun'iy ipak ham olinadi. Ba'zi daraxt va butalardan kauchuk olinadi.

Daraxt butalarning mevali vitamanga boy bo'lganligidan iste'mol qilinadi. Ular qandalotchilik va konserva sanoatida murabbo, sharbat va kompot kabi turli maxsulotlar tayyorlashda ishlatiladi. Ayrim turlarining bargi, guli, mevasi, urug'i, po'stlog'i va ildizi tarkibida turli alkaloidlar bo'lib, ulardan har xil turdagi dori-darmonlar tayyorlanadi (A.U.Usmonov, 1974, Yu.V.Shelchunov, Ya.T.Sheynin va boshqalar, 19081; A.A.Xonazarov 2000).

O'rmonlar yog'och xom-ashyosi makonidir va shu bois ularning mahsulotidan xalq xo'jaligining hamma sohalarida foydalaniladi, ishlatiladi. Qog'oz, plastmassa, fanera, karton, mebel, shapar, kinoplyonka va kiyimlarni, uy-joy qurilish materiallari, temir yo'llardagi shpallar va shaxtalardagi har xil moslamalarni, o'tin va yog'och ko'mirni, yog'och spirtini hammasini daraxtlar beradi.

O'rmonlardan 25000 dan ortiq har xil birikma va mahsulotlar olinadi. Dunyoda keyingi yillar moboynda yog'och mahsulotlariga bo'lgan talab 12 marotaba oshdi (A.Xonazarov 2000).

O'rmonlarda ko'p holatlarda yaylovlar sifatida ham foydalaniladi. O'rmonzordagi maydonlar har-xil va rang-barang, vitaminli, tabiiy o'tlarga ham boydir. Bundan tashqari ko'pchilik daraxt barglaridan, gullaridan, shoxlaridan hamda ildizlaridan vitaminli oziqalar tayyorlanadi.

O'rmonlar ovchilik manbai hamdir. Bundan tashqari bu yerlarda asalarichilik, o'rmon yo'llari va daryolarida baliqchilik kabi sohalarni ham rivojlantirish mumkin.

O'rmonlarning yana bir asosiy xususiyati shundaki, ular daryolarni loyqalar bilan to'lib qolishidan saqlaydi, tog' yon bag'irlarini yuvilib ketishidan, sellardan va qor ko'chishlaridan, qumlarni siljishidan saqlaydi.

O'rmonlar namlik va tuproqlarni saqlash manbaidir. Ular iqlimni yumshatib, havoni tozalashdan tashqari tuproqning suv rejimini yaxshilaydi, daryolarni qurib qolishidan saqlaydi, qishloq xo'jalik dalalarining unumdorligini oshiradi, qumlar ko'chishiga va ularning kattalashishiga to'siq bo'ladi.

O'rmonzorlarning ekologik ahamiyati undan ham yuqoriroq. Bir gektar keng yaproqli o'rmonzorlar bir necha kunduzda 2-3 kg, ignabrglilar esa 5 kg, archazorlar esa 30 kg kacha fitonsidlar ajratadi, yoki bir gektar o'rmonzor bu soatda ajratgan kislorod 200 kishining nafas olishini ta'minlaydi. O'rmonlar o'z yog'ochi bilangina qimmatbaho emas, balki bag'rida o'sib, rivojlanadigan har xil turdagi shifobaxsh o'tlar, yarim butalari, shuningdek qo'ziqorinlari, yong'oq, pista, bodom, funduk, olma, nok, tut, na'matak, olcha, jirg'anoq, qoraqand kabi mevalari bilan ham mashxurdir (G.I.Redko, A.R.Rodin, I.P.Treizevskiy 1980).

Daraxtlar shahar va qishloq aholisini changdan va zaharli gazlardan transport vositalari tovushlaridan saqlaydi. Daraxtlarning shox-shabballari shifobaxsh azon moddasi paydo bo'lishiga yordam beradi, ularning cho'llari, mevalari, barglari va kurtaklari fitonsid moddalari ajratib, inson salomatligiga xavfli bo'lgan har xil mikroblarni o'ldirishda qatnashadi.

Ayniqsa, qarag'ayzor o'rmonlarning havosida mikroblar mutlaqo bo'lmaydi. Chunki qarag'ay daraxtlari efir moylarini chiqaradi, bu moda fitonsidlarga boy bo'lib, mikroblarda halokatli ta'sir etadi (N.Raximqulova, N.J.Xodjayeva 2006).

O'rmonlar bor joylarda har xil kurortlar, sanatoriylar, bolalar oromgohlari joylashgan. Chunki, o'rmonlar eng kata «kislorod fabrikasi» hisoblanadi.

«Yashil omborxona»lar ishlab chiqargan mahsulotlar uchun hyech qanday ish haqi talab qilinmaydi. Bir gektar yashil daraxtzor bir kecha-kunduz davomida 24 kg is gazini yutadi (A.Xonazarov 2000).

Respublikamizda aholi yashash joylari, dam olish maskanlari, korxona va tashkilotlar xududlarini manzarali, atrof-muhitga ijobiy ta'sir qiluvchi, xom-ashyo tariqasida yuqori samara beradigan daraxtlarni ko'paytirishga katta e'tibor berilmoqda. Shunday daraxtlardan biri soxta kashtan hisoblanib, farmosevtika sanoatida uning urug'i, po'stlog'i, bargi va gullari har xil tabiiy dorilar ishlab chiqarishda xom ashyo sifatida ishlatiladi.

Tabobatda dorisi ateroskleroz, trombodombit, vena qon tomirining yallig'lanishi, tromboz, varikoz kasalliklarini davolashda o'rni kata (M.G'aniyev, 2008).

Shunday daraxtlardan biri oddiy archa hisoblanib, tibbiyotda archa qubbasidan siydik haydovchi, siydik yo'llarini tozalovchi, balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Archaning efir moyining spirtidagi eritmasi va surtmasi bod kasalliklarida tananing og'rigan yeriga surtiladi (R.Sobirov, R.Eshganov, 2008).

Keyingi yillarda tabiiy va madaniy resurslarning muhofazasini ta'minlash uchun qo'riqxonalar, milliy bog'lar xiyobonlar va boshqalar uchun maxsus xududlar ajratilgan, chunki mazkur xududlar tufayli, hayvonot va o'simlik olami va ekotizimlar muhofaza etiladi. Xozirgi kunda xudud noyob boyligini asrash borasida nodavlat tashkilotlari oshib bormoqda. Mamlakatimizda 30 dan ortiq ekologik nodavlat tashkilotlari ekologik tizimni yaxshilash bo'yicha ish yuritmoqdalar (S.Yo'ldoshev, 1996 , N.Xakimov, Z.Xoshimov, A.Islomova 2006).

Respublikamizning o'rmon fondi yerlarida 40 ming gektardan ortiq madaniy va tabiiy pistazorlar mavjud bo'lib, bu maydonlar davlat o'rmon xo'jaliklari tomonidan qo'riqlanadi va muxofaza qilinadi.

A.Abug'ov, S.Mamatov (2008) tadqiqotlarining ko'rsatishicha tut daraxti gurunt suvlari sathining rostlash, kanallardan sizilayotgan suvlarning ta'sirini kamaytirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, sug'oriladigan ekin maydonlari atroflarida, sug'orish ariqlari, zovurlarning atroflariga ekish maqsadga muvofiqdir.

T.Mirzatoyev 2006 ma'lumotlariga ko'ra ikki qatorli jiyda va qayrag'ochdan iborat ixota o'rmonzorlar q.x.ekinlari, jumladan g'o'za hosildorligi yuqori bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Pista yonbag'rlarning yuvilib va yemirilib ketishidan saqlaydi efir va tog' oralaridagi vodiylarning iqlimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu daraxt tufayli quruq adirlarda qurg'oqchil o'simliklardan iborat juda muhim biosenozi olinadi.

Bir vaqtning o'zida pista suv to'plovchi va meliorator ham xisoblanadi (S.Jonxo'jayev 2007, T.Tulaganov, L.Mixaylova 2007, A.Raxmonov, 2009).

Sh.Yusupov, V.Fimkin ma'lumotlariga ko'ra, sug'orish tarmoqlari qirg'og'ida ekilgan 1000 dona terak ko'chati 25 yil davomida 350 m³ yog'och beradi. Bundan tashqari, teraklar tomirlari kanal suvlarini filtirlab havoga bug'lantirib, biologik drenat vazifasini bajaradi, botqoqlanish va ikkilamchi sho'rlanishning oldini oladi.

Respublikamizda davlat o'rmon fondi 8,8 mln.ga yoki umumiy maydonining 19,8% iga teng, o'rmonlar bilan qoplangan maydon qariyb 2,4 mln (5,3% ni tashkil etadi. Shu bois o'rmonlar barpo etish mavjudlarini qayta tiklash hamda asosan kesuvchi qisqa muddati o'rta hisobda 30 yil) ignabargni (turli xil qarag'aylar tez o'sadigan turlari maydonlarini yaratish bo'yicha dasturlarni kengaytirish lozim (A.Xonazarov, E.Gaziyans, M.G'aniyev, 2007).

Zero kishilarning salomatligi, uzoq umr ko'rishi o'z navbatida musaffo havo, mo'tadil iqlim, toza suv kabi omillarga bog'liq bo'lib, bu borada o'rmonlarning ahamiyati kata.

Shu bois konstitusiyamizning 55 moddasida ham o'rmon umum milliy boylik ekanligi alohida ta'kidlangan. Shuningdek ulardan oqilona foydalanishni tartibga soluvchi bir qator qonunlar ham qabul qilingan (M.G'aniye, B.Qobulov, 2007). Ye.Lim, S.Reshetnikova (2009) ma'lumotlariga ko'ra, 1991 yildan 2008 yilgacha o'rmon fondi maydoni 2 mln gektarga kengayib, o'rmon bilan qoplanish ko'rsatkichi 5,1 dan 7,2% ga ortgan.

O'zbekiston Respublikasi «O'rmon to'g'risidagi» qonuning 16-moddasiga ko'ra, o'rmon tuzish, o'rmonlarni muxofaza qilish, qo'riqlash, o'rmon xo'jaligi va o'rmondan foydalanishni oqilona yuritilishini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar keltirilgan (A.Nigmatov, M.Qalandarov, 2003).

Shu asosda mamlakatimizda o'rmonlarni kengaytirish, muxofaza qilishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda o'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi tartibidagi 6 ta markaziy davlat o'rmon xo'jaligi, 21 ta ishlab chiqarish uchastkasi, 8 ta ixtisoslashgan o'rmon xo'jaligi, 1 ta milliy tabiiy bog'i, 6 ta davlat qo'riqxonasi, 6 ta o'rmon ovchilik xo'jaligi, 58 ta davlat o'rmon xo'jaligida o'rmonlarni asrash, ko'paytirish, o'simlik va hayvonot dunyosini kelgusi avlodlarga yetkazish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda (M.Yoqubov, G.Turopov, 2008).

Yangi o'rmonzorlar barpo etishda respublikamiz O'rta Osiyo mamlakatlari orasida salmoqli o'rinlarni egallab turibdi. Bu ishlar yiliga har xil mintaqalarda 3035 ming gektar maydonda amalga oshiriladi.

2001 yilgacha shirkat, jamoa, fermer xo'jaliklari yerida 40 ming gektardan oshiqroq maydonda ihota daraxtzorlari barpo etildi.

Ular qishloq xo'jalik ekinlarini har xil tabiiy ofatlardan saqlaydi va ekinlar hosildorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi (A.Xonazarov, 2009).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov rahbarligida ko'kalamzorlashtirish ishlariga kata e'tibor berilayapti. Binobarin, 2009 yilni «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb e'lon qilinganligi ham qishloq va shaharlarimizni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirishga bo'lgan yana bir xayrli ish deb qabul qilishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 2 martdagi 76-sonli farmoniga ko'ra, respublika manzarali bog'dorchilik va o'rmon xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi barpo etilganligi yuqoridagi fikrlarimizga misoldir.

Cho'l mintaqasida parvarish qilinayotgan daraxt va butalar turlari qumliklarni oldini olish sharoitlarini yaxshilovchi vosita, ya'ni havoning tarkibini yaxshilash, uni kasallik keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlardan tozalash, chang, gaz, sanoat chiqindilaridan va boshqalardan himoya qilish rolini o'tashini albatta diqqat markazimizda saqlash lozim. Daraxt – buta o'simliklari tupproqni meliorativ xolatini, sizot suvlarini sathini pasaytirish bilan birgalikda ixota vazifasini xam bajaradi.

Shu bois biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizda cho'l mintaqasida parvarish qilinayotgan daraxt va butalar turlari qumliklarni oldini olish sharoitlarini yaxshilovchi vosita va ko'kalamzorlashtirishdagi ahamiyati va ularni yetishtirish borasidagi texnologik jarayonlarni yoritishni maqsadga muvofiq deb topdik.

2. O'zbekistonning cho'l mintaqasining tuproq-iqlim sharoitlari

Hudud iqlimi qishning sovuq bo'lishi va yozning jazirama issiq bo'lishi bilan tavsiflanadi. Yeng sovuq oylar yanvar va fevral oylari hisoblanadi.

Yanvarning o'rtacha ko'p yillik harorat -28°S ni tashkil yetadi. Bahor oylari cho'l sharoiti bilan diyarli bir hil bo'ladi. Aprel oyida harorat $+20,5^{\circ}\text{S}$ gacha ko'tariladi. Bahorgi so'nggi sovuqlar mart oyining oxiriga, ba'zan aprel hattoki mart oyining 1-dekadasida to'g'ri keladi. Yoz oylarida jazirama issiq ko'p bo'ladi. Yuqori harorat iyul oyiga to'g'ri keladi, o'rtacha $+28,5^{\circ}\text{S}$ ni tashkil etadi. Yozda haroratning sutkalik o'zgarishi amplitudasi $18-24^{\circ}\text{S}$ ga teng bo'ladi. Harorat o'zgarishining yuqori amplitudasi oy, mavsum va yil davomida ham kuzatiladi. Hududidayoz mavsumi birmuncha qirg'oqchil bo'ladi. Kuzgi birinchi sovuqning tushishi oktyabr oyinig 2- dekadasi to'g'ri keladi.

Havo haroratining oylar bo'yicha o'zgarib borishi ma'lum tendensiya asosida sodir bo'ladi. Hududda yog'ingarchilik miqdori oylar bo'yicha tekis taqsimlanmagan. Atmosfera yog'inlarining asosiy qismi qish va bahor oylariga tushadi. Yoz mavsumida deyarli yog'ingarchilik bo'lmaydi. Hattoki ko'p yillik kuzatishlar natijasida aniqlanganki iyul-avgust oylarida yog'ingarchilik mutloqo bo'lmagan. O'rtacha ko'p yillik yog'ingarchilik miqdori 260 mm ni tashkil etadi. Lekin bu miqdor yog'ingarchilik ko'p bo'lgan yillarda 360mm gacha yetishi yog'ingarchilik kam bo'lgan yillarda 150mm gacha tushishi kuzatiladi.

Havoning nisbiy namligi havo harorati va yog'ingarchilikning oylar bo'yicha taqsimlanishiga bog'liq holda o'zgaradi. Shuni hisobga olgan holda havoning nisbiy namligi 47-65% atrofida bo'ladi. Kuz davrida esa bu ko'rsatgich

%ni tashkil etadi, yoz oylarida nisbiy namlik minimal darajaga tushadi va 30-32%ni tashkil etadi. Hududning o'rtacha ko'p yillik nisbiy namligi 56%ga teng.

Shamol rejimi hududda asosan janubiy g'arb va shimoliy sharq tamonlardan esadi. Bu tamonlardan esadigan shamollar miqdori yillik shamol esishining 67-70% ini tashkil etadi. Shamol nisbatan sharq va janub tamonlarda kam esadi uning miqdori atiga 5-6% ni tashkil etadi. Shamol esishi yil fasllari bo'yicha o'zgarib turadi. Unga ko'ra eng sovuq oylar sifatida dekabr, yanvar va fevral

oylari bo'lib bu oylarda shamolning esishi oylik miqdoriga nisbatan 35-40% ni tashkil etadi.

1-jadval.

**Havo tempraturasining keyingi 10 yilda oylar bo'yicha
o'rtacha qiymatlari °S hisobida.**

yillar øylar	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
I	3,3	-0,4	4,0	3,9	5,1	1,4	-2,2	1,9	-5,1	3,0
II	3,2	4,1	5,1	5,0	7,1	1,0	7,9	5,8	-1,3	6,0
III	8,7	10,6	10,5	7,5	9,7	11,7	10,5	8,2	14,1	10,6
IV	18,0	17,2	14,1	13,3	13,9	15,2	16,1	17,4	16,2	12,1
V	21,9	23,9	18,9	17,6	20,9	19,1	22,6	20,9	22,1	19,4
VI	25,0	27,2	24,3	23,3	25,8	25,3	25,4	25,9	26,3	23,2
VII	27,0	25,8	26,2	27,1	25,7	27,0	26,6	26,9	27,5	26,3
VIII	26,2	24,8	26,2	25,2	25,1	23,8	25,8	25,2	26,0	24,2
IX	20,6	19,7	20,9	20,4	20,8	21,5	19,3	20,7	20,1	19,9
X	12,0	13,3	16,8	16,2	12,5	14,5	17,2	12,2	13,2	14,1
XI	6,1	10,0	10,1	8,0	11,1	8,0	8,7	9,9	7,6	8,0
XII	4,2	5,2	3,0	2,6	3,2	5,2	1,0	1,8	3,6	5,0

2-jadval.

**Keyingi 10 yilda oylar bo'yicha tushgan atmosfera yog'inlari
miqdorini hisobida.**

yillar oylar	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
I	45,3	17,7	43,1	16,1	86,9	67,6	57,3	31,8	32,4	30,9
II	22,6	40,0	83,3	51,4	12,8	35,8	44,9	33,0	37,6	63,7
III	20,4	22,7	123,8	104,8	96,4	65,9	31,1	70,3	25,4	67,2
IV	33,2	5,2	144,3	84,8	68,1	24,0	45,6	52,3	64,9	112,5
V	0,0	0,0	31,7	30,9	16,6	22,8	1,5	41,9	17,8	50,6
VI	3,3	0,0	2,9	22,8	0,0	8,7	0,1	6,1	-	30,8
VII	-	0,0	3,2	0,0	11,2	0,0	2,1	0,0	1,2	0,0
VIII	0,0	3,0	-	0,7	0,0	22,2	-	0,0	0,0	1,2
IX	0,9	0,0	-	-	0,0	-	7,4	-	6,4	0,3
X	34,5	20,1	-	2,2	21,2	4,1	6,7	5,5	43,2	1,3
XI	32,7	29,2	21,7	54,8	133,0	40,2	62,8	25,2	27,2	40,6
XII	69,6	47,0	48,2	72,8	101,3	18,7	29,0	83,3	35,1	58,2

**Keyingi 10 yilda oylar bo'yicha havo nisbiy namligining o'rtacha qiymatlari
foiz hisobida**

yillar oylar	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
I	75	81	77	80	82	85	84	71	90	83
II	72	74	79	49	80	73	74	71	86	71
III	58	64	71	76	73	75	70	71	57	73
IV	53	55	79	72	67	65	59	70	60	76
V	45	46	66	62	52	59	49	59	49	63
VI	39	34	50	55	41	49	43	40	39	48
VII	40	39	47	43	49	48	45	43	41	41
VIII	43	44	47	45	46	54	45	44	40	47
IX	49	41	50	48	48	51	51	46	46	54
X	65	61	57	55	64	59	56	49	64	54
XI	74	71	70	75	76	77	65	60	72	68
XII	80	73	75	79	84	76	81	86	82	79

Keyingi 10 yilda oylar buyicha shamollar esishining takrorlanishi.

yillar/ oylar	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
I	11-16	5-14	4-12	10-18	6-14	10-16	6-13	3-8	4-10	6-18
II	7-18	8-16	8-20	11-21	10-21	8-16	7-16	12-20	5-18	6-16
III	7-17	7-14	12-20	8-17	9-18	8-16	7-16	8-18	12-28	9-20
IV	8-16	9-15	6-17	8-18	9-18	10-21	6-16	7-18	8-17	8-18
V	7-14	10-17	7-15	7-17	8-14	8-15	7-15	7-17	4-8	8-18
VI	6-14	4-13	7-16	7-20	7-13	7-14	7-12	7-15	4-10	5-12
VII	7-14	5-12	6-13	4-11	7-12	7-13	5-11	4-10	6-12	7-16
VIII	7-12	5-12	5-10	4-10	6-11	8-18	9-15	5-13	7-14	5-11
IX	5-13	4-11	5-13	4-14	5-11	6-12	6-14	3-8	4-8	5-11
X	7-13	8-14	7-13	7-14	5-12	5-12	6-13	7-14	6-13	6-14
XI	4-11	6-11	6-13	6-14	10-18	6-13	7-12	10-20	3-10	8-16
XII	9-14	5-16	5-12	5-13	9-15	7-13	5-10	7-18	2-6	7-15

Cho'l mintaqasi tuproqlarining asosiy xususiyatlari - ulardagi gumus miqdorining kamligi, yuqori karbonatligi, sho'rlanishning keng tarqalganligi, joylarda sho'rxok va gipslashganligidir.

So'r tusli qo'ng'ir tuproqlar qadimiy geologik tuproq yotqiziqlarida rivojlangan. Tuproq hosil qiluvchi yotqiziqlari bo'lib - uchlamchi davr yotqiziqlari va boshqa qadimiy yotqiziqlar xizmat qiladi. Bu tuproqlarning yuqori qatlamida 0,3 dan 0,7% gacha gumus bo'ladi. Sur tusli qo'ng'ir tuproqlardan asosan yaylovlar sifatida yil bo'yi foydalaniladi. Sug'orishda kam darajada o'zlashtiriladi, chunki yetarli darajada mayda tuproq qatlamiga ega emas, suv o'tkazmaydigan qattiq va maydalanuvchan sho'rlangan gipslashgan yotqiziqdan iborat bo'lib, katta maydonda oddiy sug'orishdan cheklangan sur tusli tuproqlar o'zining noqulay agrokimyoviy va suv — fizik xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Haydaladigan yerlarda gumus tarkibi 0,6% dan oshmaydi, hammasi suvda eruvchan tuzlari bilan sho'rlangan, ularda karst va buziluvchan xususiyatlar uchraydi. Kuchli gipslashish darajasi 60% gacha boradi. Gips gorizontlari qalinligi 1,0 m gacha yetadi. Gips gorizontlarining zichlashishi oqibatida ildizlarning rivojlanishiga xalaqit qiladi. Bunday yerlarning melioratsiyasi juda mushkul va qimmatga tushadi.

Qumli cho'l tuproqlari. Qizilqumda, qadimiy Amudaryo deltasida tarqalgan. Ular elyuvial va allyuvial qumli va qumoq yotqiziqlarda rivojlangan, 0,3 dan 0,6 gacha gumusga ega. Yerlari doimiy yaylovlar sifatida foydalaniladi. Tuproq'i noqulay, notekis relyefda (baland-past qumliklarda) joylashganligi tufayli sug'orilganda yuza qismini tekislashga, kapital planirovka qilishga to'g'ri keladi. Tuproq qovushqoqligining yo'qligi, sug'orishga rejalashtirilgan tuproqning eng kuchsiz shamol ta'sirida ham chang bo'lib uchishiga olib keladi. Sug'oriladigan qumli cho'l tuproqlari agronomik usullarga yaroqsiz hisoblanadi. Ular kam gumusli (0,3-0,4%) yengil buziluvchan, ko'p suv va ozuqa talab etuvchi. Sizot suvlarining ko'tarilishida gidromorf rejimiga o'tadi.

Taairli tuproqlar va taairlar vodiy va Amudaryo, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo daltalari, shuningdek Qizilqum va Ustyurt kenglik tekisliklarida

tarqalgan. Taqirli tuproqlarda o'simliklar juda oz yoki umuman bo'lmaydi. Bu o'z navbatida tuproq qatlamida organik moddalarning yetishmovchiligiga sabab bo'ladi. Bunday tuproqlarning yuqori qatlamlarida 0,4 dan 1,0% gacha gumus miqdori bor. Mexanik tarkibiga ko'ra bu tuproqlar og'ir va sho'rxok bo'lib, kuchsiz suv o'tkazuvchanlikka ega. Cho'l zonasida taqir tuproqlar sug'orish uchun yaxshi o'zlashtirilgan. Ular tez o'zlashtiriladi va yaxshi hosildor bo'ladi.

O'tloqi taqir tuproqlar delta tekisliklarining taqir va o'tloqi zonalarida birlashgan yerlarda rivojlangan. Sizot suvlari 3-5 m chuqurlikda joylashgan. Gumus miqdori bu tuproqlarda awalda mavjud bo'lgan tuproq qatlamlarining gumus holatiga ko'ra 0,7 dan 2% gacha bo'ladi. Deyarli barcha o'tloqi-taqir tuproqlar u yoki bu darajada sho'rlangan, sug'orish natijasida sho'rlanish ko'payadi. Shunday bo'lishiga qaramay, bu cho'l zonasida sug'orish bilan o'zlashtirish yaxshi natijalar beradi.

O'tloqi tuproqlar cho'l zonada daryo deltalarining doimiy o'rtacha va ko'p darajada namlangan sizot suvlariga ega yerlarda (1-3 m) rivojlangan. Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarning asosiy qismi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro viloyatlarida joylashgan. O'tloqi yerlarda gumus tarkibi 0,5 dan 2% gacha yetadi. Suv ayrilish hududlarda o'tloqi tuproqlar yengil mexanik tarkibga, sizot suvlari kuchsiz minerallasgan yuvilgan yoki yengil sho'rlangan gruntlardan iborat. Pastliklardagi o'tloqi tuproqlar og'ir mexanik tarkib va sizot suvlari oqimining yomonligi sababli sho'rlanish darajasining yuqoriligi bilan xarakterlanadi.

Botqoq-o'tloqi tuproqlar cho'l zonasida o'tloqi tuproqlar kabi qulay sharoitlarda rivojlanadi, lekin sizot suvlari namligining ko'pligi oqibatida botqoqlashadi. Botqoq-o'tloqi tuproqlarning maydoni uncha katta emas va ulardan asosan yil mobaynida yaylov sifatida foydalaniladi.


Sho'rxoklar daryo deltalarida tekisliklari va deltalarda. Tog' oldi vodiya pastqam yerlar depressiyalarida rivojlangan. Asosan cho'l zonasida keng tarqalgan bo'lib, och tusli tuproqlarning qo'yi pastki mintaqasida tarqalgan. Barcha sho'rxoklargumus gorizonti qatlamiga ega, bu qatlam o'z navbatida o'simliklar bilan qoplangan. Sho'rxoklar sug'oriladigan tuproqlar orasida quyi tekisliklarda

va sug'oriladigan yerlardan tashqarida tarqalgan. Kerakli meliorativ tadbirlarni o'tkazilsa, sug'orish uchun tayyorlash mumkin bo'ladi. Sho'rxoklarda tuzlar yuqori gorizont qatlamlarida joylashganligi bois suvda eruvchan tuzlar 3 dan 20-30 foizgacha etadi.

3. Asosiy qism

3.1. Buta turkumiga kiruvchi ayrim turlarning dendrologik tav sifi

Qandim – (*Calligonum* Z) – Tarandoshlar oilasiga (*Poligonaceae*) mansub o'simlik. Uning 1 dan ortiq turi bo'lib, MDH da 11 turlari uchraydi, ular birlaridan asosan mevalari va po'stloqlari bilan farqlanadi. Ular buta o'simliklari bo'lib, balandligi 0,5 dan 4 (7) m gacha bo'ladi. Ularning shox-shabballari yaxshi rivojlangan, yashil yoki oqish-yashil rangli, assimilyasiya navdalari bor, barglari – kuchli reduksiyalangan, chiziqli yoki ignasimon, uzunligi 3-7 mm. Gullari xushbo'ydir. Mevalari yong'oqcha. Ular urug'lari, urug' ko'chatlari va qalamchalari bilan ko'paytiriladi. Ularning tarkibida tannidlar mavjud. U cho'llarning chiroyiga chiroy ko'shib qolmasdan, novdalari va mevalari qorako'l qo'ylari va boshqa hayvonlari uchun ozuqa hamdir. Qandimlar katta-kichikligiga qarab yirik butali va mayda butaliklarga bo'linadilar. Yirik butalilarga quyidagilar kiradi: Qizil qandim (*Colligonum caput medusae*), oq qandim (daraxtsimon qandim) (*C.arborescens* Litw), tukli qandim (*C.eriopodum* Bge), baland qandim (*C.elatum* Litw), mayda butalarga quyidagilar kiradi: Turkiston qandimi (*C.turcestanicum* N.Paol), bargsiz qandim (*C.aphyllum* (Pall) Curce), g'ildiraksimon qandim (*C.rotula* Borszc z), tukli qandim (*C.setosum* Litw).



1. rasm. Qandim butasining umumiy ko'rinishi.

Bargsiz qandim – (qora juzg'un) – *S.aphyllum gurce* tabiiy holda Volga bo'yi, Kavkaz, G'arbiy Sibir, O'rta Osiyoda tarqalgan, Buta balandligi 2-3 m, navdalarining rangi qo'ng'ir-qizil, siyrak butazorlarni barpo etadi.

Baland bo'yli qandim (terak qandim) – *S.elatum Litw.* Bu o'simlik tabiiy holda asosan qoraqum va qizilqumda uchraydi. Daraxtning balandligi 7 m, tanasi juda ham to'g'ri, po'stlog'i ayrim holda oq rangda bo'lib, cho'l mintaqasining ko'rkiga ko'rk qo'shadi. Gullari to'q qizil, yog'ochi shaffof, urilganda jaranglab chiqadi.

Qizil qandim – *Colligonum caput medusae schrenc.* O'rta Osiyoda, Eronda, Afg'onistonda uchraydi. Kuchli shoxlanadigan buta: bo'yi 1,5-2 m, po'stlog'i och, ayrim holda qizg'ish rangli, eng ko'p tarqalgan qumni mustahkamlovchi serhosil o'simlik. Tuproqning sho'rliqligini yoqtirmaydi.

Daraxtsimon qandim (*S.arborescens Litw*) qoraqumda uchraydi (Amudaryogacha). Daraxtsimon buta, bo'yi 3,5 m va tanasining yo'g'onligi 14 sm, guli och qizil, tez o'sishi bilan farqlanadi, qumli cho'llardan o'tgan temir yo'l, avtomobil yo'llari va o'sha yerdagi obyektlarni ko'kalamzorlashtirishda qo'llaniladi.

Paleskiy qandimi – *S.Paletzeianum Litw,* O'rta Osiyoda – qoraqumda uchraydi. Buta o'simligi, bo'yi 3 m gacha Barxan qumlarida o'sadi. Ko'chma qumlarni mustahkamlashda ishlatiladi.

Turkiston qandimi – *S.turcestanieum N.Pol (C.Comosum Eug cor.)* O'rta Osiyoning Qoraqum va Qizilqum cho'llarida uchraydi. Bo'yi 0,7-1m (1,8 m) gacha bo'lgan buta: juda sershox o'simliklar bilan qoplangan qumlarda asosan saksavulzorlarda ikkinchi yarus sifatida o'sadi.

Sertuk oyoqsimon qandim (nojuzg'un) – *C.eriopodum Bge* O'rta Osiyoda uchraydi (Orol Kaspiy, Qoraqum, Qizilqum). Bo'yi 3-3,5 m (8m) tuproqning yuzasi qismida tanasining yo'g'onligi 35 sm gacha, ayrim holda buta bo'lib o'sadi. Qalin navdalaridagi po'stlog'i ingichka bo'lib qavatlanadi: Ayrim hollarda osilib turadi. Mevalari yaltiroq-qizil, yumshoq tukli sharsimon, diametri 5 sm gacha, shamol ta'sirida uzoqlarga harakatlanib boradi. Qum tepaliklarda o'sish uchun

moslashgan. Boshqa turlarga nisbatan turg'un bo'lib qolgan qumliklarda o'sishga moslashgan. Asosan oq saksavulzorlarda uchraydi. Yog'ochi och – qizg'ishidan to to'q qizilgacha, yog'ochning yadrosi sariq, og'ir, pishiq, mayda tovarlarni ishlab chiqarishga yaraydi. Qumlarni to'suvchi ikkinchi darajali o'simlik.

Tukli qandim (chakich) *S.setosum*. Litw O'rta Osiyoda Qizilqum va Qoraqumda uchraydi. Bo'yi 0,5-1 (1,8) m keladigan buta, asosan oq saksavulzorda ikkinchi yarusni tashkil qilib o'sadi. Tuproqning sho'rligiga boshqa turlarga nisbatan chidamliroq qumlar bosib qolsa, boshqa turlarga nisbatan chidamsizroqdir, ko'chma qumlarni mustahkamlashda kam qo'llaniladi. Ko'kalamzorlashtirish uchun qimmatlidir. Shox – shabbasi qalin, yarim sharsimon, pastga qarab o'sadigan oq rangli novdali, barglari oq-yashil tusda, mevalari qizil yoki sariq-qizil (ayrim hollarda qoramtir) qanotchalar bo'yicha qirrali, qanotlari uzun shoxlanmagan tuklar bilan qoplangan. Ularni aylanasi 4-5 sm.li siyrak shar shaklini tashkil etadi. Ildiz tizimi kalta 0,5 m gacha o'q ildiz, kuchli yo'g'onlashgan (8-10 sm) va undan yon tomonga uzun ildizlar o'sib chiqadi. Tuproqning sho'rligiga boshqa turlarga nisbatan chidamliroq, ammo qumlar bosib qolishiga chidamligi kam: kuchli ravishda qum bosib qolganda ular qurib qoladi.

Rixter cherkezi, sho'rdoshlar oilasiga mansub buta unumligi, Rixter cherkezining (*Salsola Richteri*) bo'yi 2-2,5 m.ga yetadi. Asosan o'simliklar bilan qoplangan yoki yarim ko'chma qumlarga kirib boradi. Vegetasiya davri yetti oy davom etadi – mart oxiridan oktyabr oyining oxirigacha (birinchi sovuq haroratlar boshlangunicha). May oyida gullab, ko'p vaqt davom etadi. Gullash davridan so'ng ko'p vaqt davomida tinim holida bo'ladi (to sentyabr oyigacha). Shunda mevalar vujudga kelishi kuzatiladi.

Rixter cherkezining ildiz tizimi ko'chma qumlarda sizot suvlari chuqur joylashgan maydonlarda asosan gorizantal yo'nalishda rivojlanadi, qum tepaliklarda, sizot suvlari 8-10 m chuqurlikda joylashgan yerlarda ildizlar asosan gorizontlarigacha o'sadi. Cherkezni qumlari bosib qolsa, uning poyalarida ko'p sonli yon ildizlar paydo bo'ladi, shamol ta'sirida qum ko'chib ildizlar ochilib qolsa, bachki (yon) ildizlar paydo bo'lmaydi.

Rixter cherkezi ko'chma qum tepaliklarda o'sganda birinchi yili asosan vertikal yo'nalishda rivojlanadilar 60-90 sm chuqurlikkacha, ikki yoshli nihollarda ko'proq yon ildizchalar o'sa boshlaydi. Ulardan keyinchalik vertikal yo'nalishda yangi ildizchalar o'sa boshlaydi. To'rt-besh yoshli cherkezning ildizlari yaxshi rivojlangan bo'ladi. Bunda ikkinchi va undan ortiq tartibdagi ildizlar rivojlangan bo'ladi, bu yoshda ildizlarning chuqurga qarab o'sishi 1,3-1,5 m gacha boradi.

Paleskiy Cherkezi (qora cherkez) – *Salsola Paletzeina Litw* – yirik butali o'simlik. U kamroq tarqalgan, chunki u faqat ko'chma qumlarda uchraydi. Erkak selindan keyin paydo bo'la boshlaydi.

Paleskiy cherkezi rixter cherkezidan quyidagi alomatlari bilan farqlanadi: Rixter cherkezining barglari g'adir-budir, notekis, uni lablar bilan oson sezish mumkin. Paleskiy cherkezining bargchasi ezilganda (guli yoki mevasini ham) rixter cherkezinikida qog'ozda yoki ro'molchada och-bo'z rangli dog' ildizlari qoladi. Paleskiy cherkezinikida esa tez qorayadigan dog' qoladi.

Mevalarning shakli Rixter cherkezining Paleskiy cherkezidan shu bilan farqlanadiki, undagi cho'l yon barglarida shoxsimon o'simtalar bo'lmaydi, Paleskiy cherkezida esa ular bor. Cherkezining ikala turlari ko'chma qumlarni mustahkamlashda juda qimmatli hisoblanadilar va o'rta Osiyo qumli cho'llarining agroo'rmon meliorasiyasida, ayniqsa ko'chma qumlarni mustahkamlashda keng foydalaniladi. Uning balandligi 3-4 m, tanasining yo'g'onligi 15-20 sm bo'lishi mumkin. Shox-shabbasi siyrak, kulrang-oqish ingichka novdalardan iborat. Ularning uzunligi 6-7 sm, chiziqli va osilib turuvchi barglar bilan qoplangan, gulchalari barg qo'ltiqlari ichida yakka-yakka bo'lib joylashgan bo'ladi: gul bandlari qiska, mevalarida qanotchalar bor (diametri 2 sm gacha) qanotchalar radial yo'nalishdagi tomirchali shoyisimon-yaltiroq. 1000 dona urug'larining massasi 15 g gacha bo'ladi, o'simliklar bilan qoplangan qumliklarda u asta-sekin quriy boshlaydi.

Yog'ochi pishiq, og'ir: o'tin sifatida foydalaniladi. Tez o'sadi, urug'lari va qalamchalari bilan ham ko'payadi.

Saksovul turkumi (*Halohylon Bge*). Saksovul turkumi sho'rdoshlar oilasiga mansub o'simlikdir (*chenopodiaceae*).

O'rta Osiyo cho'llarida eng o'ziga xos va ma'lum bo'lgan o'simlikdir. Turkumda 5 tur bo'lib, MDH da 3 turi uchraydi. Bular unga katta bo'lmagan daraxtlar va yirik butalardir: o'rtacha balandliklari 3-5 m, kamdan-kam holda 8-10 m ga yetadi. Tanalarining yo'g'onligi ayrim hollarda 40-50 sm va undan yuqoriroq bo'lishi mumkin. Navdalari nisbatan ingichka, juda murt, o'ziga xos dioxotomik shoxlanadi, barglari juda ham mayda, suprotivli, ayrim turlar kuchli reduksiyalangan, gulchalari mayda, ikki jinsli, unga ko'rimli emas. Urug' berishi yaxshi sharoitlarda har yili qaytariladi, urug'larining sifati har doim ham sifatli bo'lavermaydi. Ammo to'liq urug'li mevalari yaxshi unib chiquvchanlik xususiyatga egadir va tez pasayadi. Amalda saksavulning urug'larini 6 oydan ortiq saqlash mumkin emas, saksavul tez o'suvchi, tez hosil beruvchi va nisbatan uncha ko'p yil yashamaydigan daraxt turlariga kiradi, urug'lari ekilgan yili saksavulning bo'yi 1 m.ga, 2 yili 2-2,5 m.ga yetadi, 3-4 yildan keyin meva hosil bera boshlaydi va 15-20 yildan so'ng qariydi. Kesilgandan so'ng to'nkasidan juda ko'p novdalar o'sib chiqadi, shunday xususiyatlardan foydalanib, saksavulzorning hayotini 30-40 yoshgacha cho'zish mumkin (2 rasm).



2. rasm. Saksovullarning umumiy ko'rinishi.

Oq saksovul – *Holohylon persicum* Bge. Bu saksavulni «qum saksovuli» deb ham atashadi, chunki u qumli maydonlarga moslashgan va shu maydonlarda ko'proq uchraydi. Oq saksovulning bo'yi 2-3 m keladigan buta o'simlikdir. Ammo yaxshi tuproq va iqlim sharoitlarida daraxt shaklida o'sishi mumkin. Bo'yi 5-6 m va undan balandroq bo'lishi mumkin. Tanasining po'stlog'i va navdalari oqish-sariq, silliq. Shox-shabbasi siyrak, ular uch turli novdalardan tuzilgan: o'suvchi, assimilyasion va generativli. Bargli mayda uchburchakli bigizsimon uchli tangachalar ko'rinishida.

Oq saksovulning vegetasiyasi erta bahorda generativ novdalarining o'sishi bilan boshlanadi, so'ngra pastroqda assimilyasiya novdachalari paydo bo'ladi. Yozda ularning bir qismi to'kiladi, qolganlari esa hajm bo'yicha kamayadilar. Kuzda ular yo'g'onlashadi va sovuq haroratlardan so'ng urug'lari bilan birga to'kiladi. Bahorda hammasidan kechroq o'suvchi novdalar o'sa boshlaydi, ular kuzga kesib yog'ochlanadi va yillik o'sish aniqlanadi, mart-aprelda gullaydi, kuzda pishib yetiladi, urug'lari yengil, mayda, qanotli, 1 kg urug'larida 250 ming dona bo'ladi. Asosan urug'lari bilan ko'payadi. Urug'laridan tez o'sib chiqadi, ildizlari tezroq o'sadi, tabiiy sharoitlarda yillik o'sishi yoshlik davrida (5 yoshgacha) 50-70 sm o'sadi. Ekib o'stirilganda esa 1 m.gacha va undan yuqori bo'ladi. Oq sariq saksavulning ildiz tarmoqlari chuqurlikka qarab uncha ko'p o'smaydi. Ammo yon shoxlarining uzunligi 30 m.gacha yetadi. Kambiyning ko'p martalab o'sganligi sababli yillik halqalariga qarab uning yoshini aniqlab bo'lmaydi. Yog'ochi pishiq, murt va yengil sinadi.

Qora saksovul – *Holohylon aphyllum* (Minhv) Lesim. Sho'r tuproqlarda o'sadi. Bargsiz, yaxshiroq ekologik sharoitlarda o'sadi, sizot suvlari yaqinroq va ozuqa moddalarga boyroq tuproqlarda yaxshi rivojlanadi, tuproqning va sizot suvning sho'rligiga chidamlidir. Katta shox-shabбалari bilan oq saksovuldan farqlanadi, bo'yi 8-10 m, tanasining yo'g'onligi 50-60 sm gacha yetadi, shox-shabbasi siyrak, yoyilib ketgan, noaniq shaklga ega, novdalari osilib turadigan shakllari ko'proq uchraydi va aksincha, tika o'suvchilari (piramidasimonlari) ham

uchraydi. Barglari reduksiyalangan va suprotiv shishlarga almashtirilgan. Vegetasiya, assimilyasiya novdalari to'q-yashil rangli, nordon-sho'r mazali. Tanasi va novdalarining po'sti qo'ng'irsimon, g'unchalari mayda, ikki juft yonbarg, besh gulbarg, beshta changchi (erkak generativ organi gulning changdoni va changchi ipidan iborat qismi) va bir urug'idan tuzilgan (o'simlikning urg'ochi jinsiy organi; tuguncha, ustuncha va tumshuqchadan iborat). Mevasi-qanotli, kattaligi 4-12 mm uning markazida mayda (2 mm) pusht joylashgan. 1000 dona qanotchali rivojlangan urug'chalarining massasi 5,1-5,2 g, qanotsizi esa 3 g. Saksovulning urug'larida tinim davri bo'lmaydi va ular ekishdan oldin stratifikasiya qilinmaydi. Ayniqsa ildizlari tez o'sadi. Bir oyning ichida urug'dan o'sib chiqqan ildizcha 20-25 sm, yilning oxiriga kelib esa 1,5-2 m chuqurlikka yetib boradi. Uch yoshli o'simliklarida uning chuqurlikga qarab o'sishi 5 m, 7 yoshda 10 (14) m ga yetadi. Bu esa qora saksovul uchun sizot suvdan foydalanishga sharoit yaratadi (3. rasm).



3. rasm. Saksovul butalari qumliklarda. Cho'l yaylovzorlaridagi saksovul ixotazorlari.

Quyonsuyak (qum akasiyasi) – dukkakdoshlar (*Leguminosae*) oilasiga mansub o'simlik. Quyonsuyak (akasiya konolli – *Ammodendron conollyi* Bge).

O'rta Osiyo va Qozog'istonning sho'r tuproqli xududlarida o'sadi. Qoraqum va Qizilqum cho'llarining barxan qumlarida ko'proq shamol ta'sirida chuqurroq bo'lgan maydonlarda uchraydi qumlarni maxkamlashda qimmatli o'simlik.

Bo'yi 8 m gacha keladigan daraxt, ayrim hollarda buta shaklida o'sadi. Novdalari ingichka, osilib turuvchi, qalin kalta tuklari bo'lganligi sababli kulrang – yashil tusda. Eskiroq novdalari botqoq-sarg'ish, yalang'och, siyrak tikanlari va yog'ochlangan bandli barglari mavjuli. Barglari murakkab, juft-patsimon, chiziqli, kulrang-yashil rangli, bandi kalta. Keyinchalik tikanga aylanadi. Barglari kuzgacha to'kilmaydi. Gulchalari binafsha rangli, ko'p gulchalarga yig'ilgan, oxirgilari tor piramidasimon panjali, xushbo'y hidli. Mevasi dukkak, uzunligi 2-3 ayrim holda 5 sm, cho'zinchoq, teskari tuxumsimon shaklga egadir. Mevalari och-sariq, yalang'och, spiralga uxshab burilgan, yassi (yalpoq, tekis), qanotli, bir-ikki urug'li, ochilmaydi. Tuxumsimon shaklidagi qanotchalar mevalarining tarqalishiga yordam beradi. Mevalar qumning ustida yengil xarakatlanadi. Urug'lari mayda (5 mm). Sarg'ish-ko'kimtir rangli.

Ildiz tizimi yaxshi rivojlangan, o'q ildiz rivojlanadi, tuproqqa 18 m chuqurlikkacha o'sib boradi va tuproqning yuza qismiga yaqin ildiz tarmoqlarini rivojlanatiradi. Qum bosib qolgan tanalaridan ildizlar o'sib chiqadi, ular bachki navdalarni hosil qiladi. Shu xususiyati sababli ayrim nihollari tuproqda keng o'sib tarqaladilar.

O'simlikning po'stloq tagidagi yupqa yangi yog'och qatlami-tor sariqsimon. Yadrosi keng, jigarrang, pishiq, og'ir. Mayda tokarlik mahsulotlariga va ko'pincha o'tinga ishlatiladi.

25-30 yil yashaydi. Bir yillik o'sishi o'rtacha 150 sm.ga yetadi. Sun'iy ravishda yetishtirish XX asrning boshlaridan beri barxanli qumlarni mustahkamlashda o'rta Osiyoning qumli cho'llarida foydalanib kelingan. Qumlarni mustahkamlashda katta e'tiborga loyiq o'simlikdir (4.

rasm).



4. rasm. Qum akasiyasi ko'chma qumliklarda. QUM akasiyasi ko'chmas holga kelgan qumlikda.

Karelina quyonsuyagi. Syuzeni (Karelina qum akasiyasi) (*Annadendron Carelini Fisch.et mey*).

Bu quyonsuyak (syuzen) yoki karelina syuzeni konolli syuzenga (quyonsuyagi) nisbatan O'rta Osiyo va Qozog'istonda kam tarqalgan katta va kichik Borsuklarda, Jebel stansiyasiga yaqin joyda va surxi qumlarida (Samsonovo stansiyasiga yaqin joyda) uchraydi. Bu tumanlarda u undan oldingi turga o'xshab ahamiyatga egadir va biologiyasi bo'yicha kam farqlanadi.

Kumushsimon ching'il. Qizqon (chingil serebristoy) – *Halimodendron halodendron (Pall)* – Dukkaklilar oilasiga mansub o'simlik turi (*Leguminosae*).

Turkumdagi yagona turdir. MDX da, O'rta Osiyoda, Kavkaz ortida, Azov dengiz atroflarida uchraydi. Tikanli buta, bo'yi 3 m gacha yetadi, navdalari qirrali, ilonsimon shakldagi navdalari ko'p holda kumushsimon yumshoq tukchalar bilan qoplangan. Barglari 1-4 juftli, o'tmas oltinsimon rang, gulchalarining rangi binafsha tusli yoki qizg'ish rangli, yirik, dukkagi shishib turgan sariq, ajinsimon, bir uyali, uzunligi 3 sm.gacha. O'tkir uchi qisqa burilgan, nektarga boy, gullash davrida juda manzarali.

Qorabarak (qorabarken) – *Kalosiachys caspica*. Sho'rdoshlar oilasiga mansub tur (*chenopodictae*).

Kavkaz, Kaspiy bo'yi, O'rta Osiyoda tarqalgan. Bo'yi 3,5 m.gacha yetadigan buta yoki daraxt. Sershox-shabbali, yosh novdalari bo'g'inli, ko'kimtir (qishda deyarli qora), suvli, ko'pincha g'adir-budir (kichik mayda tikanchalari

sababli). Barglari juda mayda tangasimon gulchalari 3 tadan barglar tanasi bilan bandi tutashgan joyidagi chuqurchada. Ko'l, nam, yumshoq sho'rxok maydonlarda, dengizlar atrofida tarqalgan. Qishda mollar yeydi. O'tin sifatida ishlatilishi mumkin. Juda ham manzarali buta. Bir tanali o'simliklar tanasining yo'g'onligi 10 sm gacha yetadi. Gullari ikkin jinsli, qoramtir-jigarrangli. 1000 dona urug'larining massasi 1g.dan oz. Ildiz tizimi yaxshi rivojlangan. Ammo chuqur gorizontalariga yetib bormaydi. Chunki qorabarak kuchli sho'rlangan sizot suvlari yuza joylashgan maydonlarda o'sadi.

Qubbasimon sorotan (*Halocnemum strobilaceum*) (Pall) M.V.

Yer yuzasiga yopishib o'sadigan egri-bugri shakldagi buta: bo'yi 70 sm.ga yetadi, yoyilgan va ko'tarilib turgan yog'ichlangan ko'p yillik navdalari va bo'g'inli gushtdor qarama-qarshi bir yoshli navdalari mavjud. Barglari mayda, qarama-qarshi joylashgan, yaxshi rivojlanmagan, gullari ikki jinsli, bir-biriga yaqin joylashgan, barglarning qo'ltig'ida joylashgan 2-3 tadan boshoqsimon murakkab gulchalarga yig'ilgan. Gulqo'rg'oni yalang'och, uch bargli. Changchisi 1 ta, urug'chisi ikkita qubbasimon tumshuqchalardan iborat. Urug'lari mayda, oval shaklida, uzunligi 0,5-0,75 mm. 1000 dona urug'larning massasi 10 g, ko'pchilik holda ya'ni pastki navdalarining ildiz otishi xisobiga vegetativ usulda ko'payadi.

Bu esa 2-3 m diametri qum tepaliklarni vujudga keltiradi. Urug'lari ho'l bo'lgan sho'rxok tuproqlarda, ya'ni sizot suvlari tuproqning yuzasiga yaqin bo'lgan maydonlarda unib chiqadi. Sekin o'sadi. Ildizlari tuproqqa chuqur o'sib bormaydi, 3 yoshda urug' bera boshlaydi, generativ novdalarni paydo qiladi va 10-15 yildan so'ng quriy boshlaydi. Sho'r tuproqlarga juda ham chidamlidir. Tuproqning tarkibida 50% tuz bo'lganda ham o'sishi mumkin. Sizot suvlarining minerallashishi darajasi 100 g/l ham chidaydi.

Yulg'un-yulg'undoshlar oilasiga mansub o'simlik (***Tamaricaceae***) butasimon va daraxtsimon o'simliklar turkumi.

Butasimonlarining bo'yi 1-3 m bo'lib, daraxtlariniki esa 6-8 m.gacha boradi. Barglari mayda tangacha yoki qipiqsimon bo'ladi. Och pushti yoki binafsha rangli mayda gullari chiroyli manzarali shingillar hosil qiladi. Yulg'un yorug'savar:

qurg'oqchilikka, sho'rxokka, suv bosgan joyda uzoq vaqt yashashga chidamli o'simlik. Tez o'sadi: urug'i, ildizi, bargi va qalamchalaridan ko'payadi. MDH da 25 turi o'sadi. O'rta Osiyo va Qozog'istonning cho'l va chala cho'l tumanlarida uchraydi. Bu turlardan 12 tasi O'zbekistonda o'sadi.

Yulg'undan o'tin sifatida foydalaniladi. Uning navdalaridan korzinka va savatlar to'qiladi. Po'stlog'ida bo'yash va ishlash uchun ishlatiladigan moddalar bor. Yulg'un yaxshi asal beruvchi o'silik, manzarali o'silik sifatida ahamiyatga ega. Ularning ichida manzaraliligi bilan qo'yidagilari ajralib turadilar.

- sershox yulg'un (*Tamarix ramosissima Lab*) ;
- siyrak shoxli yulg'un (*T.laha wieed*);
- shoviq yulg'uni (*T.srovitsiana Bge*);
- bunge yulg'uni (*T.Bungee boiss*);
- cho'zinchoq yulg'un (*T.elongata Lab*);
- androsov yulg'uni (*T.A.androsovii Litv*);
- gullaydigan yulg'un (*T.georida Bge*);

Shovqin yulg'uni – tik o'sadigan buta yoki kichik daraxtga: bo'yi 6-7 m, tanasi jilosiz (xira yaltiramaydigan): och buzli ko'ndalang yosmiqlari (chechevisalari) mavjud.

Ikki marta gullaydi – bahorda (aprelda) va kuzda. Bahorda gullari popukli yakka yoki bog'lamli (tutamchali) qizg'in tusli: 1-2 sm shimoldagilarida va janubiy shakllarda 4 sm gacha bo'lib nilufar – qizg'ish tusda. Kuzgi gullari mayda va o'suvchi bir yoshli navdalarda paydo bo'lishadi. Mevasi mayda ko'sakcha, keng tarqalgan, asosan janubiy cho'llarda. Atrek, Tajang, Murg'ob, Amudaryo va Sirdaryoning atroflarida ko'proq tarqalgan.

Shox-shabbasi siyrak yulg'un – navdalari ingichka buta, bo'yi 2 m.gacha yetadi. Kattaroq novdalarining po'stlog'i kulrang tusli, bahorda gullaydi: gul popuklari to'q-qizil tusli, oddiy, mayda, yog'ochlashgan novdalarda joylashadilar. Odatda boshqa yulg'unlarga nisbatan ertaroq, ya'ni yashil novdachalarining o'sishidan ilgariroq gullay boshlaydi. Bir bir yarim hafta urug'lanishdan 12 kundan keyin yetilib pishiladi. Mo'l hosil beradi. Mevaning ko'sagi ingichka, uzunligi 3-4

mm. O'rta Osiyoning daryolari vodiylarida, sho'rxok va taqirlarning chetlarida keng tarqalgan.

Cho'zinchoq yulg'un – qo'pol shoxli buta kamroq holda bo'yi 6 m keladigan daraxtcha. Tanalari va novdalarining po'stloqlari kulrang tusli, may oyida gullaydi. Gul popuklari qizg'ish rangli, yonli, oddiy, yirik. Uzunligi 4 dan 24 sm.gacha yog'ochlashgan novdalarida vujudga keladilar, mevasi ko'sakchasining uzunligi 6 mm.gacha. O'rta Osiyoda, Amudaryoning sharqrog'ida daryolarning vodiylari va sho'rxok taqirlarning chetlarida tarqalgan.

Bunge yulg'uni – ko'p poyali, bo'yi 6-7 m keladigan daraxtga, po'stlog'i och – sariq yoki och kulrang tusda. Yozning birinchi yarmida juda qiyg'os gullaydi. Gul popuklari to'q qizil tusli, boshhoqsimon va zich, uzunligi 6-7 m.gacha. Ular yon shoxlari yashil novdachalarining uchlarida joylashadi va keng supurgini hosil qiladilar.

Sershox yulg'uncha o'xshaydi. Ammo barglari qupol cherepisasimon bo'lib joylashgan va gul popuklari qalinroqdir. Janubiy cho'llarda, ko'proq qumlarda tarqalgan.

Gullaydigan yulg'un – yirik buta yoki kichik daraxtga, balandligi 6-7 m.gacha, po'stlog'i xira, to'q kulrang yoki silliq jigarrang tusli. May oyidan vegetasiya davrining oxirigacha gullaydi. Gul popuklari och-pushti rangli yoki oq: bahorgi cho'l popuklari eski yillik novdalarida vujudga keladi. Gul popuklari yon tomonlarda joylashgan oddiy, ko'psonli, bir joyga yig'ilgan (qalin) yoki siyrak joylashgan, ingichka, uzunligi 1 dan 9,5 sm.gacha, yozgi va kuzgi cho'l popuklari o'sib turgan novdalarning uchlarida rivojlanadi. Mevalarining ko'sakchalari mayda 3 mm.gacha, Murg'ob, Tajan, Atrek daryolarining atroflarida, Amudaryoning O'rta Osiyoda, janubiy cho'llarda tarqalgan.

Qizilcha. Zog'oza (*Ehhedra strobilacea*) (efedra) zog'ozadoshlar oilasiga mansub o'simlik (*Ephedraceae*).

Oilada bir turkum bo'lib unda 30 ta tur bor. MDH da yovvoyi holda 24 tur o'sadi. Yalang'och urug'lilar turkumiga kiradi. Kserofil va yarim kserofil, ikki uyli, kamdan-kam bir uyli o'simlik, kuchli shoxlangan butalar kamdan-kam

hollarda daraxtlar (balandligi 8 m.gacha). Novdalari xivchin shaklida bargsiz kulrang yoki och kulrang, barglari suprotiv tartibda, 3-4 tadan joylashgan. Doimiy yashil butalar hamda yarim butalar (bo'yi 90.ga yetadi) turkumi, ular asosan, shimoliy sibir, O'rta Osiyo va Kavkazdagi tog' yon bag'irlarida, quruq, toshloq tuproqlarda o'sadi. Ularning 2 turi bor (*Ephedra equisetina*. Bge *Ephedra intermedra schrencia*. et C.A.may) Efedrin alkaloidi olish uchun hom ashyo sifatida xizmat qiladi. Efedrin alkaloidi medisinada qon to'xtashi, qon tomirlarini toraytirish uchun ishlatiladi.

Qizilcha ko'p yil yashaydigan o'simliklardan biri, o'simlikning yashashi davri 15-20 yil.

5-jadval

O'zbekiston Respublikasi cho'l sharoitida foydalaniladigan butalarning asosiy ko'rsatkichlari (A.A.Xonazarov va boshqalar, 2008 y.)

№	Daraxt va butalarning turlari	O'simlik bo'yi, m	Barglarining shakli, va uzunligi	Ko'paytirilish usullari	Foydalanish usullari
1	Qandim (buta)	0,5dan 5-7 m gacha	ignasimon 3-7 mm	Urug', urug'kuchat va qalamchalar	Ko'chma qumliklarni mustahkamlashda
2.	Rixter cherkezi (buta)	2-2,5 m	G'adir-budir, notekis	Urug', ko'chat va qalamchalari	O'rta Osiyo qumlari cho'llarida
3.	Oq saksovul (buta)	2-3 m	Mayda, uchburchakli big'isimon	Asosan urug'lari bilan	Cho'llarda o'rmonzorlarni barpo etishda
4.	Quyonsuyak (qum akasiyasi)	8 m gacha	Murakkab, juft-patsimon,	Urug'lari, ko'chat bilan	Ko'chma qumlarni maxkamlashda

	(daraxt)		chiziqli, kulrang- yashil rangli		qimmatli o'simlik
5.	Kumushsimo n chingel, qizqon (buta)	3 m gacha	1-4 juftli teskari pansentli	Urug'lari, bachki novdalari	Quruq toshloq, qumli va sho'r maydonlarning manzarasini oshirishda
6.	Qora barak (buta)	3,5 gacha	Mayda tangasimon	Urug'lari, bachki novdalari	Kuchli sho'rlangan tuproqlarda ko'kalamzorlash -tirishda
7.	Qubbasimon sorotan (buta)	70 sm gacha	Mayda, qarama- qarshi joylashgan, yaxshi rivojlan- magan	Pastki novdalari-ning ildiz otishi hisobiga vegetativ usulda ko'payadi	Manzarali, ko'chma sho'rlangan joylarni ko'kalamzor- lashtirishda
8.	Yulg'un (butasimon va daraxtsimon	Butasimon 1-3 m, daraxtsimo n 6-8 m	Barglari mayda tangacha yoki qipiqlimon	Urug'i, ildizi, bachki va qalamchalarida n	Ko'proq ko'kalamzor- lashtirishda va qumlarni mustahkamlashd a

4. Cho'l butalarining parvarishlash agrotexnikasi

O'rta Osiyoning cho'l sharoitida daraxt butalardan foydalanishda parvarishlash agrotexnikasi muxim tadbirlardan biri bo'lib hisoblanadi. Masalan: Qandim O'rta Osiyoning cho'llarida ko'chma qumlarni juda yaxshi mustahkamlovchi tur bo'lib, u ko'chma qumlarda yaxshi o'sib, shu maydonlarda yangi landshaft hosil qiladi va yashil libos berib manzarasini boyitadi. Agarda ularni qum bosib qolsa ham qo'shimcha ildizlarni hosil qilib, yana o'sib chiqish xususiyatiga egadir. Ular urug'lari, urug' ko'chatlari va qalamchalari bilan ko'paytiriladi.

Baland bo'yli qandim juda yaxshi qalamchalanadi, ammo ko'chma qumlarni mustahkamlashda kam qo'llaniladi. Chunki u kam shoxlanadi. Turg'un bo'lib qolgan qumlarda uchramaydi. Ko'kalamzorlashtirishda uning tanasi oq va gullari chiroylidir.

Tukli qandimni urug'lari, ko'chatlari, qalamchalari bilan ko'paytirish mumkin. 1ga maydonga 1000 dona ko'chati yoki 17 kg urug'i sarflanadi.

Ko'chatlarni ekishda Kolesov belkuragidan foydalanish mumkin, ko'chatlari 30-40 sm chuqurlikga fevral oy iva mart oyining birinchi dekadasida ekiladi. Urug'larini ekishdan oldin ular ho'l qumga 60-70 kun saqlanadi.

Rixter cherkezi juda yorug'sevar, qurg'oqchilikka va issiqqa chidamlidir. Sho'rxok tuproqlarda ham uncha yomon o'smaydi. O'rmon meliorativ ishlarida (ko'chma qumlarni mustahkamlashda) keng foydalaniladi. Cho'l yaylovlarining ozuqa zaxirasini boyitishda foydalanish mumkin. Chunki ularning novdalarini qo'ylar va tuyalar ayniqsa kuz-qish fasllarida xush ko'rishadi.

Rixter cherkezi 15-20 yil yashaydi.

Rixter cherkezi qiziqum, qoraqum, Betpaqdala cho'llarida va Ustyurt platasida keng tarqalgan. Shu maydonlarda undan ko'kalamzorlashtirish ishlarida foydalanish mumkin, Soliter (yakka-yakka) guruh-guruh usulda, bog'lar va parklarning atrofida ixotazor sifatida ekilishi mumkin.

Urug'lari, ko'chatlari va qalamchalari bilan ko'paytiriladi. Bir gk maydongacha 8-9 kg urug' sarflanadi yoki 1000 dona urug' ko'chatlari ekiladi.

Paleskiy cherkezi, qumli cho'l mintaqalarida joylashgan aholi punktlarini ko'kalamzorlashtirishda ishlatiladi. Guruh-guruh yakka-yakka tasmasimon usulda o'stirish mumkin. Axolii punktlarining atroflarida ixotazorlarni barpo etishda qo'llash mumkin (qumli maydonlarga). Cho'llarda ixotazorlarni barpo etish uchun sarflanadigan urug'larining miqdori: sifati 1 sinfga javob beradigan, laboratoriya sharoitida urug'larining tozaligi 65%, xo'jalik uchun yaroqli darajasi 30% bo'lganda 30,7 kg ga, xo'jalik uchun yaroqlilik darajasi 100% ni tashkil etsa, 9,0 kg/ga ni tashkil etadi.

Saksavul turkumi. Saksavullarning hamma turlari cho'llarning noqulay qiyin sharoitlariga moslashib, oq saksovul va qora saksovul cho'llarda o'rmonzorlarni barpo etishda keng qo'llanilmoqda. Ohirgi yillarda esa cho'llarni o'rmon meliorativ usullari bilan o'zlashtirish vash u cho'llarda joylashgan yaylovzorlarni yem-xashak bazasini boyitish maqsadida qo'llanilmoqda. Ammo cho'l mintaqasida joylashgan har xil sanoat obyektlari, temi rva avtomobil yo'llari, kanallar, kollektorlar, suv, gaz quvurlari o'tgan trassalarni ko'kalamzorlashtirishda hozirgacha ham ishlatilmoqda.

Oq saksovul. Tipik psammofit (qumda o'suvchi) va qum bosganda novdalarida yon shoxchalari paydo bo'ladi. Asosan qumli cho'llarda tarqalgan, O'rta Osiyoda, shimoliy Afg'oniston va Eronda uchraydi.

Qora saksovul cho'llarda o'suvchi tipik o'simlik; u keng tuproq sharoitlarida o'sishi mumkin. Bu o'simlik mezofit (namligi o'rtacha bo'lgan tuproqlarda o'sadigan o'simliklar) kserofit (qurg'oqchilik kam joylarda o'sishga moslashgan o'simliklar) va galofitning (sho'rxok o'simlik, o'ta sho'rxok tuproqlarda o'sishga moslashgan o'simliklar) xususiyatiga egadir.

Ammo oq saksovulga mos bo'lgan sharoitlarda yaxshi o'smaydi. Tuprog'i va sizot suvi sho'r bo'lgan sharoitlarda o'sishga moslashgan. Katta yoshda sizot suvining minerallasish darajasi 40 g/l bo'lganda ham yashash mumkin. O'rta Osiyoning adirli (qurg'oqchil, yog'in-sochin kam bo'ladigan quruq iqlimi geografik xudud) tumanlari uchun o'ziga xos o'simlik. U taqirli cho'llarda, vohalar atrofidagi qumlar sho'r qumlar va buz tuproqlarda o'sadi.

Qora saksovulni temir yo'llar, avtomobil yo'llar, qumli maydonlardan o'tgan kanal, kollektorlarning atroflarini ko'kalamzorlashtirishda foydalanish mumkin. Cho'llarda joylashgan sanoat inshootlari, quduqlar, aholi punktlari atrofini ko'kalamzorlashtirishda ham qo'l keladi.

1ga haydalgan yerga urug'larini sarflash miqdori 15 kg.ni tashkil etadi. Bir gektarga sarflanadigan ko'chatlarning soni 1000-1100 donadir.

Quyonsuyak (qum akasiyasi). Bu Qoraqum va Qizilqumning qumlarida o'sadi. Butaning bo'yi 3 m tikanlari siyrak. Barglari bir juft chiziqli mavjud. Uzunligi 5 sm gacha Quyonsuyakdan (qum akasiyasidan) cho'llarda joylashgan qumli tuproqlardan o'tgan temir, avtomobil yo'llari, aholi punktlarining atrofini ko'kalamzorlashtirishda keng foydalanish mumkin. Qoraqalpog'istonda Mo'ynoq shaxarining atrofida quyonsuyakzorlar barpo etilgan bo'lib, ular shu yerning manzarasini boyitib qolmasdan, balki shu shaxarni qum bosishdan ham yaxshi himoya qilib kelmoqda.

1000 dona urug'lrining massasi 40-50 g. Urug'lari tez o'sib chiqadi. Gullarida nektar mavjud. Hayvonlar kam iste'mol qiladi, chunki unda tikanlari va alkaloid bor.

Karelina quyonsuyak, syuzena bu o'simlik agro o'rmon meliorativ ishlarida barcha qum akasiyalari (quyonsuyak syuzenlar) o'zining shox-shabbasi daraxtsimon bo'lgani sababli ikkinchi darajali ahamiyatga egadirlar. Bu o'simliklarning yalang'och tanalari ko'chma qumlar uchun to'siq olmaydi va ularni kam ushlab qoladi. Qum bosib qolgan holda ular ko'pincha qurib qoladi. Qum akasiyasining tanalari chirishga juda ham chidamlidir. Shuning uchun cho'llarda quduqlarni qurishda ulardan keng foydalaniladi.

Kumushsimon ching'il, qizqon esa, to'qay o'rmonlarida, qumli cho'llarning atroflarida keng chakalakzorlarni hosil qilib o'sadi (qirg'ovul tustovuqlar, yovvoyi cho'chqalar va boshqa hayvonlar uchun boshpanadir). Sun'iy ekib o'stirilgan maydonlari MDH Yevropa qismining Janubida, Ukrainada uchraydi jonli yashil devorlar yaratish uchun qimmatlidir.

Juda yorug'sevar, issiqqa, sho'rxoklikka chidamli buta, gili zich tuproqlarda ham o'sishi mumkin. Gullari nektarga boy, ayniqsa, gullash vaqtida manzarali, chiroyli buta, barglari ipaksimon kumush rang va gulchalari, qizil yoki och-binafsha rang, shtambli shaklda, ayniqsa manzaralidir, daraxtsimonga qaraganda payvandlangani ingichka egilgan kumushsimon navdalari bilan juda ham manzarali daraxtchani barpo etadi.

Shtambli shaklda yakka-yakka yoki kichik guruhlar qilib foydalaniladi. Butali shaklda – chekkalarda, jonli ko'rinishida quruq toshloq, qumli va sho'r maydonlarning manzarasini oshirishda hamda ko'chma qumlarni mustahkamlashda qo'llaniladi.

Urug'lari, ildizidan unib chiqqan bachki navdalari va butalar ajratilib ko'paytiriladi.

Qorabarak, tuproqning sho'rliги 40% bo'lsa ham u o'sishi mumkin. Kuchli sho'rlangan tuproqlarda o'rmon ixotazorlarini barpo etish uchun istiqbollidir, yangi o'sib chiqqanini chorva mollari yemaydi va faqat qish faslida bir necha marta muzlab qolgandan so'ng yem sifatida ishlatiladi. Yondirgandan so'ng qo'lida 36% gacha soda va ishqor bo'ladi. Quruq xashagida suv 6,3 kletchatka 12,5%, xom protein 14,2%, yog' 3,4 va azotsiz ekstraktiv moddalar 27% bo'ladi.

Ko'chli sho'rlangan yerlarda ko'kalamzorlashtirish ishlarida foydalanish mumkin.

Qubbasimon saraton esa tuproqning yuza qismini 25% qoplovchi siyrak butazorlarni barpo etadi. Kuchli sho'rlangan maydonlarning chekkalarida o'sadi. Kuchli sho'rlangan tuproqlarda o'sgani uchun 23% glauber tuzi yig'iladi va o'sib turgan yashil navdalarini chorva mollari yemaydi. Quruq xolda esa sho'ri

ketgandan keyin tuyalar yeydi va unda kletchatka 12,4%, xom protein 15% va yog' 4% bo'ladi.

U manzaralidir va kuchli sho'rlangan joylarni ko'kalamzorlashtirishda foydalaniladi. Qo'rg'oqchili zonalarda taqirlarda ho'l va yumshoq kuchli sho'rlangan maydonlarda sho'r ko'llar kollektorlarning atroflarida keng tarqalgan.

Yulg'un. Bu o'simlik birinchi uch turlari qumlarni agro o'rmon meliorasiya qilishda foydalaniladi, qolganlari hozircha ham o'rganilgan, ammo N.Rasulov ularni qumlik yerlarda yetishtirishni tavsiya qilgan.

Yulg'undan o'tin sifatida foydalaniladi. Sershoqli yulg'un esa O'rta Osiyoning hamma mintaqalarida asosan daryolarning atroflarida eski daryo uzanlarida keng tarqalgan. Ko'proq ko'kalamzorlashtirishda va qumlarni mustahkamlashda foydalaniladi.

Androsov yulg'uni. Bu o'simlikdan ko'chma qumlarni mustahkamlash maqsadlarida foydalaniladi, ammo ko'chatlari kam bo'lgani sababli kamdan kam ishlatiladi.

Hamma yulg'unlarning ildiz tarmoqlari yaxshi rivojlangan gorizont va vertikal yo'nalishlarda ham odatda ildizlar deyarli har doim sizot suvlari bilan bog'langan bo'ladi. Androsov yulg'uni bundan mustasnodir, u qumlarning yuqori gorizontlaridagi namlikdan foydalanadilar.

Butalarini qum bosib qolsa, ularida ko'p sonli qo'shimcha ildizlar paydo bo'ladi. Agar navdalarni qum bosib qolgan bo'lsa ham navdalari yuqoriga o'sib va ko'p sonli tanalarni hosil qilishadi. Natijada eski butalarda vaqt o'tishi bilan yirik qumli tepa vujudga keladi. Bunday tepaliklarning balandligi 10 m.gacha boradi. Shuning uchun ko'chma qushlar sug'oriladigan madaniy yerlarga ko'chib kelishi xavfi tug'ilganda mahalliy aholi shu qumlarni to'sib qolish uchun yulg'unlarni ekishadi.

MDHning barcha cho'llari va chala cho'llarida yulg'unlarning qalamchalari va urug' ko'chatlari sizot suvlari yaqin joylashgan asosan qumli maydonlarda (bu qumlar sug'oriladigan yerlar yoki daryo va ko'llarning atroflarida joylashgan

bo'lsa) ekiladi. Yaxshi namlangan qumlarda yoki ko'chatzorlarda urug'larni ekish mumkin.

Yulg'unlar (cho'llarda joylashgan) temir yo'l stansiyalari atroflaridagi, aholi punktlari, quduqlarni ko'kalamzorlashtirishda katta ahamiyatga egadir. Bu yulg'unlarni shu obyektlarni ko'kalamzorlashtirish ishlarida foydalanish bo'yicha O'rta Osiyoning shimoliy Kaspiy cho'llarida katta tajriba o'ttirilgan. Yulg'unning nafaq tez o'suvchi va chiroyli gullovchi qumli turi, balki sho'rxok turi ham aloxida qiziqish uyg'otadi. Ular qumli tuproqlarda joylashgan obyektlarni landshaftini boyitadi.

Qizilcha, zog'ocha, tabiatda qizilcha urug'lari va vegetativ yo'l bilan ko'payadi. O'rta hisobda bir tup o'simlik 11 ming dona urug' beradi. 5-6 yoshli qizilchaning balandligi 90-100 sm ga yetadi. O'q ildizi esa 300 sm chuqurlikkacha o'sib boradi. Ildiz tizimi esa to'liq shakllangan bo'ladi.

Qizilcha Qoraqum va Qizilqumda tarqalgan. Bunda 1 ga maydonda uning soni 100 tani tashkil etadi: yashil massasining xosili esa 0,8 s/ga.

O'ziga xos ko'rinishi yil bo'yi o'sishi. Ko'p yillar davomida o'sishi bu o'simlikning cho'llarda joylashgan aholi punktlarini ko'kalamzorlashtirishda foydalanish uchun asos bo'ladi.

5.Cho'l hududida himoyalovchi butazor va daraxtzorlar barpo etish agrotexnikasi

O'zbekiston o'rmon fondi yerining klassifikasiyasiga muvofiq (O'zO'XITI, V.V.Chux-ina) cho'l mintaqasi 4 ga bo'linadi:

- Shimoliy qizilqum;
- Markaziy qizilqum;
- Janubiy qizilqum;
- Qo'yi Surxandaryo cho'llari.

Bu rayonlar asosan qumli maydonni egallaydi.

Qumli joyda o'rmon ko'chatlarini yetishtirish o'z xususiyatlariga ega. Qumliklardagi agrotexnik tadbirlarga urug'larni tayyorlash, sepish va ko'chat ekish kiradi. Ko'chma qumliklarni o'rmonlashtirishda aholi punktlari, gidrotexnik ishshoatlarni qum ko'mish xavfi bo'lsa, mexanik himoya vositalari qo'llaniladi, mexanik vositalar madaniy o'rmon tadbirlari uchun qulay sharoitlar yaratadi.

Qumliklarda daraxt ekish. Qumliklarda o'rmon urug' sepish yoki ko'chat o'tqazish bilan yaratiladi. O'rug' ekish mayda zararli qumliklarning kata maydonlarini o'rmonlashtirishda qo'llaniladi. Bu uslubni yalang'och qumliklarga ekishda ham qo'llash mumkin, lekin urug' sepish faqat mexanik himoya vositalari o'rnatilgandan so'ng qo'llaniladi. Bu keskin sharoitlarda madaniy o'rmonlar cherkez, qandim, jiyda, qora saksovul kabi urug' ko'chatlaridan ekiladi, qumliklarda o'rmon yaratish uslublari ishning maqsadi, xarakteri va qumning holatiga bog'liq. Madaniy o'rmonlar yaylovlarni himoyalovchi, meliorativ ozuqali yaylovlar, voha, poselka, sanoat obyektlari atrofini, kanal, yo'llar chetini

himoyalovchi daraxtzorlar ko'rinishida bo'lishi mumkin (M.Ya.Parfenov va bosh. 1983).

Qumli o'rmon o'simliklari urug'larini maydonga noyabr boshidan fevral oxirigacha ekish mumkin. Qumda 20 sm chuqurlikda nam bo'lgandan so'ng urug' sepish mumkin. Ertaroq sepilgan urug'lar yaxshi natija beradi.

Respublikamizning shimoliy tumanlarida ekishni fevralda, janubiyilarida esa yanvar, fevral oyining boshida tugatish zarur.

Himoya daraxtzorlarining joylashish sxemalari madaniy o'rmonlar va o'rmon meliorasiyasi obyektlarini yaratish agrotexnikasini qo'llashga qarab aniqlanadi. Barcha holatda ekinlar kuchli shamolga perpendikulyar joylashtiriladi. Panjarasimon tartibdagi konstruksiyani yaratishda maksimal meliorativ samaraga erishish mumkin (voha, aholi punktlari atrofidagi zich konstruksiyada yaratilgan daraxtzorlardan tashqari).

Himoya yaylovlarini yaratishda asosiy lentalar orasidagi masofa taxminan 20 yoshdagi daraxtlar balandligiga 25 karra teng bo'ladi. O'simlik sharoitiga qarab bu masofa 75-125 m ni tashkil etadi. Yordamchi lentalar asosiysiga perpendikulyar joylashadi, ular orasidagi masofa 750-1250 m. Tuproqqa ishlov berish erta shudgor tizimi bo'yicha o'tkaziladi (mayda egri-bugri qumliklardan tashqari, u yerlarda tuproqqa 25-27 sm chuqurlikda kuzgi ishlov beriladi). Himoya ekish bilan yaratish mumkin. Urug' sepish⁹ ishlov berilgan lentaning o'rtasi bo'yicha PPS-0,4 seyalkasi yordamida o'tkaziladi. Bir yillik ko'chatlarni ekish qattiq sovuq to'xtagandan so'ng – fevralda martning birinchi yarmida amalga oshiriladi, qatordagi ekish o'rinlarining masofasi 1 m bo'ladi. Sepiladigan urug' me'yori (qumli navda) ularning kattaligi, unuvchanligi va sofliğiga bog'liq.

Quyidagi jadvalda himoya yaylovlarini yaratishda ularning nav sinfiga qarab urug' sarflashning taxminiy me'yori berilgan (6 jadval).

Barpo etilgan madaniy o'rmonlarni to'ldirish keyingi yil bahorda yoki kuzda yashab qolganlari 25 dan 85% gacha bo'lgan maydonlarda o'tkaziladi. Unuvchanligi 25% dan past bo'lgan ekin maydonlari qayta tiklanadi, qo'shimcha sarflash uchun urug'lar dastlabki ekish me'yorining 50% dan oshmasligi kerak.

6- jadval

1000 m li ixota qatoriga sepiladigan urug' me'yor, kg

(M.Ya.Parfenov, A.A.Danilin, N.Ye.Qashqarov)

Nav sinfi	Qora saksovul	Oq saksovul	Paleskiy chyerkezi	Bargsiz, turkiston, keng bargli qandim	Daraxtsimon qandim
I	2,6	2,2	6,9	4,1	5,5
II	3,0	2,5	8,6	4,9	6,6
III	3,5	2,9	11,4	6,1	8,2

Yashab qolishi 100% bo'lgan ihotalarga sentyabr 1000 m li har bir qatorda bir tekis joylashgan 1100 va undan ortiq nihol unib chiqqan va yaxshi rivojlangan maydonlar qabul qilinadi, qumliklarda yaylovlarni himoyalovchi o'rmonlardan tashqari, boshqa himoya daraxtzorlari ham yaratiladi, ular qumloq meliorasiyasi ma'sus kursida ko'rib chiqiladi.

6. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yullari va choralari.

Bugungi kunning eng dolzarb muommosi bu 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning tasiri va salbiy oqibatlari yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini ishlashdan iborat.

Dastlab bu inqiroz AQSHda Ipoteka kreditlashtirish tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib yirik banklar va moliyaviy tizimlarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarining bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishga olib keldi. Bularning barchasi o'z navbatida ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish suratlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq. Ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Mamlakatimiz bo'yicha investitsiya dasturlarini amalga oshirish natijasida qariyb 250 milliard so'mlik asosiy fondga ega bo'lgan jami 423 ta ob'ekt, jumladan, oziq-ovqat sanoatida 145 ta, qurilish materiallari sanoatida 118 ta, yengil va to'qimachilik sanoatida 65 ta, qishloq va o'rmon xo'jalik sohasida 58 ta, kimyo va neft'kimyo sanoatida 13 ta, farmaseftika tarmog'ida 8 ta ob'ekt ishga tushirildi.

2008-yilda ishga tushirilgan va hozirgi kunda qurilayotgan yirik ishlab chiqarish inshootlari qatorida Farg'ona vodiysini elektr energiyasi bilan muntazam ta'minlash imkonini beradigan, uzunligi 165 km yangi Angren issiqlik elektr stansiyasi-o'zbekiston yuqori kuchlanishli elektir uzatish liniyasi barpo etilganini alohida takidlash joiz sirdaryo issiqlik elektr stansiyasini "Sug'diyona" kuchlantirish stansiyasi bilan bog'laydigan, G'uzor-Surxon yuqori kuchlanishli

elektr uzatish liniyalari va Toshkent shahri elektir ta'minoti ob'ektlari loyihalarini amalga oshirish ishlari davom ettirilmoqda. Shuningdek, 2008-yili 2 ming 600 kilometrdan ortiq ichimlik suvi hamda foydalanishga topshirildi.

Ishtimoiy soha ob'ektlarini qurish va foydalanishga topshirish masalalariga ustivor ahamiyat berilishi natijasida 113 ming 200 o'quvchiga mo'ljallangan 169 ta kasb-xunar kolleji va 14 ming 700 o'rinli 23 ta akademik litsey qurildi va rekonstruksiya qilindi. Shu bilan birga, 69 ta yangi maktab barpo etildi va 582 ta maktab kapital rekonstruksiya qilindi. Shular qatorida 184 ta bolalar sporti inshooti, 26 ta qishloq vrachlik punkti ba 7 mln 240 ming kv metr turar joy binolari va boshqa ob'ektlar qurildi.

2008-yilda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning samaradorligini yanada oshirish prinsipial muhim ahamiyatga ega ekanligini inobatga olib, fermer xo'jaliklariga ajratilayotgan yer maydonlarini optimallashtirish borasida zarur ishlar amalga oshirildi. Dastlab zarar ko'rib ishlaydigan, rentabilligi pas va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini tugatish negizida tashkil etilgan hususiy fermer xo'jaliklari bugungi kunda xaqli ravishda qishloq yetakchi bo'g'iniga-qishloq xo'jalik maxsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy kuchga aylandi.

Hozirgi vaqtda fermer xo'jaliklari qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etishning eng samarali shakl ekanini hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda. Yurtimizda fermer xo'jaliklarini moddiy texnik taminlash va moliyalash bo'yicha bozor iqtisodiyoti tamoillariga to'la javob beradigan ishonchli tizim va mexanizmlar shakllantirildi va muoffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda.

Xar yili fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash uchun katta miqdorda moddiy reso'rs va mablag'lar ajratilmoqda. Faqat o'tgan 2008-yilning o'zida qishloq xo'jalik maxsulotlarining eng muhim turlarini yetishtirish uchun 1 tirilion sum, jumladan, paxta tayyorlashga 800 milliard so'm, g'alla yetishtirishga 200 milliard so'm mablag' avans tariqasida berildi. 2009-yilda ushbu maqsadlar uchun 1 tirilion 200 milliard so'm yo'naltiriladi.

Qishloq xo'jalik texnikasini lizing asosida sotib olish bo'yicha maxsus tashkil etilgan fond xisobida ushbu maqsadlar uchun 2008-yili 43 milliard so'mdan

ziyod mablag' ajratilgan bo'lsa, 2009-yilda 58 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirish rejalashtirilmoqda.

Davlatimiz tamonidan ko'rsatilayotgan ana shunday etibor va amaliy yordam tufayli 2008-yilda fermer xo'jaliklarining paxta yetishtirishdagi ulushi 99,1% ni, g'alla tayyorlashda esa 79,2%ni tashkil qildi.

Shu bilan birga, o'tgan davr maboynida orttirgan tajribamiz fermerlikni yanada rivojlantirish uchun bir qator juda muhim muommolarni, xususan, eng muxim, ularning samaradorligini oshirish bilan bog'liq masalalarni xal qilishni qat'iy talab etmoqda.

Faoliyat yuritayotgan aksariyat fermer xo'jaliklarining ish tajribasi shundan dalolat beradiki, fermer xo'jaliklarini shakllantirishning dastlabki bosqichida ularga ajratib berilgan yer maydonlarining kamligi maxsulot ishlab chiqarish rentabilligining o'sishiga ko'p jixatdan to'sqinlik qilmoqda.

Imkoniyati, kuch-quvvati kam bo'lgan fermer xo'jaliklari o'zini zarur texnika, aylanma mablag' bilan taminlash, kredit qobilyatiga ega bo'lish, eng asosiysi o'z xarajatlarini qoplash va foyda ko'rib ishlash, daromadni oshirishning ishonchli asosiga aylanmasligini bugun hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Shundan kelib chiqqan xolda yer maydonlarini to'liq inventarizasiyadan o'tkazish va fermer xo'jaliklari faoliyatini tanqidiy baholash asosida ularni yer maydonlarini optimallashtirish bo'yicha keng ko'lamli, shu bilan birga, puxta o'ylangan ishlar amalga oshirildi. Bunda fermer xo'jaliklarining qaysi sohaga iqtisoslashgani va mamlakatimizning turli xududlaridagi axoli zichligi aloxida olindi.

Ana shu ishlar natijasida fermer xo'jaliklari uchun ajratilgan yer maydonlari bugungi kunda paxtachilik va g'allachilikda o'rtacha 37 ga dan 93,7 gektargacha ko'paydi yoki 2,5 barobardan ziyod oshdi. Bu ko'rsatgich bsabzavotchilikda 10 gektardan 24,7 gektargacha yoki 2,5 barobar, chorvachilikda esa 154 gektardan 164,5 gektargacha ko'paydi.

2008-yilda mamlakatimizda kichik biznes va hususiy tadbirkorlik soxasi barqaror rivojlandi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliq yukini yanada kamaytirish, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovining 10% idan 8 % ga, 2009-yildan boshlab esa 7% ga tushirildi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalarining kamaytirilishi va ayni paytda uni xisoblash tartiblarini takomillashtirilishi tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni izchil rivojlantirish uchun kuchli rag'batlantiruvchi omillar yaratdi.

Natijada so'nggi 6 yil mobaynida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subektlari soni 1,9 barobar ko'paydi va 2008-yili qariyb 400 mingtani tashkil etdi.

Kichik biznes subektlari tamonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat maxsulotlari hajmi 2008yili sal kam 22%ga ko'paydi. Bu sanoat tarmog'idagi o'rtacha o'sish ko'rsatkichidan ancha ko'pdir. Shuning natijasida kichik biznesning yalpi ichki maxsulotdagi ulishi 2007-yildagi 45,5% dan 2008-yildi 48,2% ga ko'tarildi. Bugungi kunda mamlakatimizda ish bilan band bo'lgan jami aholining 76% dan ko'prog'i aynan shu soxada mehnat qilayotgani ayniqsa etiborlidir.

Axolini ish bilan taminlash muommolarini hal etishda ham jiddiy sifat o'zgarishlari ko'zga tashlanmoqda. Biz uchun o'ta dolzarb bo'lgan bu masalani yechishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bilan birga, xizmat ko'rsatish soxasi va kasanachilikning turli shakllarini keng joriy etish , qishloq joylarda chorvachilikni rivojlantirishni rag'batlantirishga aloxida ahamiyat berilmokqda.

2008-yil mobaynida yurtimizda 661 mingga yaqin, jumladan, kichik biznes soxasida-374 mingta, xizmat ko'rsatish va servis soxasida- qariyb 220 mingta kasanachilik xisobidan esa- 97 ming 800 ta yangi ish o'rni yaratildi.

Albatta ish o'rinlari sonini ko'paytirishda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish va kengaytirish muhim o'rin tutadi. 2008-yili aloqa axboratlashtirish, moliya, bank, transport xizmati ko'rsatish, maishiy texnika va avtomobillarni ta'mirlash soxalari ancha yuqori suratlar bilan rivojlandi. So'ngi to'rt yil mobaynida yiliga o'rtacha 50% o'sishni taminlayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari soxasida xizmat ko'rsatish jadal

rivojlanayotganini aloxida takidlash lozim. Natija xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki maxsulotdagi ulishi 2007-yildagi 42,5% dan 2008-yilda 45,3%ga o'sdi.

Ayni paytda qishloq axolisiga ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi yildan yilga o'sib borayotganiga qaramay, hali –beri past darajada bor yo'g'i 26,8 % bo'lib qolayotganiga alohida e'tibor berish lozim. Takror va takror takidlab aytishki kerakki, ishlab chiqarish korxonalari bilan korporatsiya asosida barpo etiladigan kosanachilikni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada mamlakatimizda ish beruvchi korxonalar uchun ham, kosanachilik bilan shug'urlanuvchi aholi uchun ham rag'batlantirishning yaxlit va ta'sirchan tizimi yaratilgan.

Bugungi bosqichda kosanachilik sohasi bandlik va oila byudjeti daromadlarni oshirishning qo'shimcha manbaiga aylanib borayotganini hech kim inkor etmaydi. Ayni vaqtda kosanachilik fuqorolarni, birinchi navbatda, xotin qizlar, ayniqsa ko'p bolali ayollarni, yordamga muxtoj nogironlar va mexnat qobiliyati cheklangan boshqa shaxslarni ishlab chiqarish faoliyatiga jalb etish uchun muxim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

2008-yilda kosanachilik tamonidan 34 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi va xizmatlar ko'rsatildi. Kosanachilik uchun ish o'rinlari ochgan korxonalar, shu borada o'lariga berilgan imtiyozlar hisobidan 1 milliard so'mdan ortiq mablag'ni tejashga erishdi. Aholini ayniqsa qishloq aholisini ish bilan ta'minlashning yana bir muxim yo'nalishi shaxsiy yordamchi va dexqon xo'jaliklarida qoramol boqish bilan shug'ulanadigan kishilar sonini ko'paytirishdan iborat qayd etish kerakki, bu masalada muayyan ijobiy najalar qo'lga kiritilgan.

7. Bosh maqsadimiz keng kulamli islohatlar va modernizasiya yo'lini qattiyat bilan davom ettirish

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi

MA'RUZASI

Global jahon iqtisodiyotida hali beri saqlanib qolinayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan, 2012 yilda O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholi turmush tarzini izchil yuksaltirishni ta'minladi, dunyo bozorlaridagi o'z pozitsiyasini mustahkamladi.

Bu davrda mamlakatimiz yalpi ichki maxsuloti 8,2 5 ga o'sdi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 % ga, qishloq xo'jaligi 7 % ga chakana savdo aylanmasi esa 13,9 % ga oshdi.

Davlat jami xarajatlarining asosiy qismi, ya'ni qariyb 59,2 % i ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish chora tadbirlari amalga oshirilishiga qaratildi, uning 34 % dan ortig'i ta'lim, 14,5 % dan ko'prog'i sog'liqni saqlash sohalarini moliyalashtirishga yo'naltirildi.

